

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

_____S.Abdullayev

“ ” _____2018-y

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta‘lim yo‘nalishi IV kurs
401-guruh talabasi Serobov Xurshid Rashid o‘g‘lining “**Matnazar
Abdulkhakim she‘rlarining metaforik xususiyatlari**” mavzusida
yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.d. prof. Bahodir Karimov

Taqrizchi:

f.f.n.dot. Suvon Meli

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Matnazar Abdulhakim she'rlarining metaforik xususiyatlari

DAK qarori:

5111200 - O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 401-guruh talabasi Serobov Xurshidning "Matnazar Abdulhakim she'rlarining metaforik xususiyatlari"

Bitiruv malakaviy ishi «_____» ga baholansin.

«_____» _____ 2018-yil

DAK raisi:

N.Mahmudov

DAK kotibi:

G.Komilova

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. Matnazar Abdulhakim – mumtoz an’analar davomchisi.

1.1. Shoir she’rlaridagi mumtoz ruh manbalari.

1.2. Matnazar Abdulhakim g’azallaridagi mumtoz san’atlar tahlili.

II BOB. Shoir she’riyatida metaforalarning qo’llanilishi

2.1. Matnazar Abdulhakim she’rlaridagi metaforalar tahlili.

2.2. “Ko’chki” (“Yatimat ut-dahr” ohanglarida”) turkumining metaforik xususiyatlari.

III BOB. Matnazar Abdulhakim she’rlaridagi badiiy san’atlar tahlili.

3.1. Shoirning she’riy san’atlardan foydalanish mahorati.

3.2. Matnazar Abdulhakimning o’g’uz lahjasidagi she’rlarida metafora.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda bugungi kunda xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining hamma jabhalarida erishilayotgan yutuqlar, jahonning eng rivojlangan davlatlari bilan siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-texnik sohalardagi aloqalarda erishilayotgan muvaffaqiyatlar bevosita yurtimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritganligi bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov xalqimizning asrlar davomida ardoqlab kelingan buyuk boyligi hisoblangan ma'naviyatning asl mohiyati va uning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini yoritib berishga bag'ishlangan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ona tilimizning mamlakatimiz ichki va tashqi hayotidagi o'rni va rivojlanishiga, uning vazifaviy-uslubiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish lozimligiga alohida e'tibor qaratgan. Haqiqatdan ham, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur»¹.

Darhaqiqat, ma'naviyatimizning asosi bo'lgan adabiy tilimizni yanada rivojlantirish, xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklash, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy merosni o'rganish, mustaqillik mafkurasini badiiy ijod sohasida, ta'lim jarayonida yoshlarimiz ongiga singdirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, davlatimiz rahbariyati ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratdi. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning milliy modelini amalga oshirish kun tartibidagi eng muhim masalalardan biriga aylandi. Ana shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda zamonaviy bilimlardan, ilg'or pedagogik texnologiyalardan xabardor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent. Ma'naviyat, 2008. – B.87.

beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish maqsadida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. «Milliy istiqlol g'oyasini vatandoshlar shuuriga singdirish, yurt kelajagi – yosh avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirishdek oliyjanob vazifalar davlat dasturi darajasiga ko'tarildi»².

Tilning o'z funksional-semantik imkoniyatlarini, turli ma'no nozikliklarini namoyon etishida badiiy ijod ahlining, xususan, shoir va yozuvchilarning xizmatlari beqiyosdir. Shu bois alohida olingan ijodkorlar individual uslubi, asarlarning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish ularning adabiy tilimiz rivojiga qo'shgan hissalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek, «Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z hosilini berayotgani, badiiy adabiyotimiz mavzular ko'lami jihatidan ham, janrlar nuqtayi nazaridan ham rang-barang bo'lib borayotgani, adabiyot maydonida yangidan-yangi nomlar paydo bo'layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi. Bularning barchasi milliy tiklanish jarayonlari qalam ahlining ijodiy izlanishlari uchun qanday katta ufqlar ochib berganini yana bir bor ko'rsatadi»³.

Bu fikrlar mustaqillik tufayli xalqimiz hayotida milliy tiklanish yuzaga kelganligi, xalqimiz orasida yangi ijtimoiy munosabatlar amal qila boshlaganligini ko'rsatadi. Mustaqillik davrida badiiy ijodga bo'lgan talab sezilarli darajada kuchaydi.

Atoqli olmon olimi Vilgelm fon Gumboldtning “Yer yuzidagi tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning har xilligi emas, balki har bir millatdagi

²Воҳидов Р., Неъматов Ҳ., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат.-Тошкент. Ёзувчи. 2001. Б.5.

³Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 38.

dunyoni ko‘rishning farqliligi natijasidir”⁴, degan gapida juda katta haqiqat mavjud. Darhaqiqat, ilm-fan, badiiy ijodda mustaqillik sharofati bilan dunyoni ko‘rish yangi tus oldi.

Mustaqillik davri o‘zbek badiiy adabiyotining va shu jumladan, adabiy tilimiz rivojiga o‘z ijodi bilan munosib hissa qo‘shgan shoirlardan biri O‘zbekiston xalq shoiri Matnazar Abdulhakimdir. Matnazar Abdulhakimning turli mavzularda yaratilgan she‘rlarida o‘zbek tilining yashirin imkoniyatlari, metaforalarning o‘ziga xos nozik ma’nolar ifodalashdagi xususiyatlari, jozibasi, bo‘yoqdorligi, ifodaliligi, emotsional-ekspressivligi turli vositalar yordamida namoyon bo‘ladi. Matnazar Abdulhakim ijodida betakror tasvirlarni yuzaga keltiruvchi hamda she‘riyati tilining badiiyatini ta‘minlovchi metafora va she‘riy san’atlardan o‘rinli foydalanganligi uning so‘z qo‘llashda yuksak mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi

O‘zbek adabiyotshunosligida alohida ijodkorlar asarlarining metaforik xususiyatlarini adabiyotshunoslik nazariyasi jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan ayrim ishlar mavjud bo‘lsa-da, Matnazar Abdulhakimning she‘riy asarlari metaforik xususiyatlari haligacha maxsus o‘rganilmagan. Bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Matnazar Abdulhakim ijodiga ko‘plab olimlar, yozuvchilar munosabat bildirganlar, tadqiq etganlar. Jumladan, Abdulla O‘roz, Shuhrat Matkarim, Nabijon Boqiy, Bahodir Karim, Ro‘zimboy Hasan, Mahmud Rajab va boshqalar. Ko‘plab olim va ijodkorlar nazm va tarjimada ijod qilgan shoirning ijodini o‘rganishda salmoqli hissa qo‘shganlar.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mohir so‘z san’atkori Matnazar Abdulhakim ijodida individual uslubiga xos xususiyatlarni aniqlashda shoir

⁴ Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода // Звегинцев В.В. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях, часть 1.

– М.: Просвещение. 1964, 91-бет.

poetik asarlarida qo'llanilgan metaforalarni, she'riy san'atlarni tahlil qilish bitiruv-malakaviy ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun tadqiqot jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

– metaforaning o'zbek adabiyotshunosligida ishlangan xususiyatlarini yanada boyitish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni tahlil qilish;

– Matnazar Abdulhakim ijodining o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi haqida fikr yuritish va uning 2017-yilda G'afur G'ulom NMIUda nashr etilgan "Tanlangan asarlar"i (2 jildlik) bo'yicha metaforik xususiyatlarini aniqlash jihatdan tadqiq etishning bugungi kundagi dolzarb ahamiyatini belgilab berish;

– shoirning she'riy asarlarda metaforalarni tanlash va qo'llashdagi mahorati, o'ziga xos individual uslubining metaforik xususiyatlari haqida fikr yuritish;

– Matnazar Abdulhakimning "Ko'chki" ("Yatimat ut-dahr" ohanglarida") turkumidagi she'rlarda qo'llangan metaforalarni badiiy jihatdan tahlil qilish;

– Matnazar Abdulhakim g'azallarida qo'llanilgan she'riy san'atlarning shoir g'azaliyotida mumtoz an'analarni davom ettirish bo'yicha vazifasini aniqlash;

– Matnazar Abdulhakimning lirik qahramon ruhiyati, ichki kechinmalari, voqelik faktlariga munosabatini ochib berishda metaforalardan foydalanishdagi o'ziga xos uslubini aniqlash;

– Matnazar Abdulhakimning badiiy til imkoniyatlaridan hamda shevadan foydalanish mahorati to'g'risidagi fikrlarni bir maxrajga keltirish va bu borada muayyan xulosalarga kelish.

Bitiruv malakaviy ishi obykti va predmeti. Matnazar Abdulhakimning 2017-yilda nashr qilingan 2 jildlik "Tanlangan asarlar" kitobiga kiritilgan she'rlari mazkur Bitiruv malakaviy ishi uchun tadqiqot

obyekti qilib olindi. Shoir asarlarida qoʻllangan metaforalarni yuzaga keltiruvchi leksik-stilistik vositalarning sheʼriy asar tilining badiiy-estetik jihatdan oʻziga xosligini taʼminlashga xizmat qilishini metaforik xususiyatlari tadqiqi boʻyicha oʻrganish tadqiqot predmeti boʻlib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy tadqiqot masalalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishini tadqiq etishda badiiy tafakkurning qonuniyatlarini poetik asarlar matniga tatbiq qilgan holda shakl va mazmun, makon va zamon, xususiylik va umumiylik tamoyillariga tayanish, tadqiqot jarayonida koʻzlangan maqsadga erishish uchun badiiy, metaforik va stilistik tahlil usullaridan foydalanish ishdan koʻzlangan asosiy tadqiqot masalalari hisoblanadi.

Tadqiqotda qoʻllanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Mavzu yuzasidan misollar toʻplash, badiiy asar tahlilining metaforik xususiyatlarini tadqiq etish usuli, shuningdek, oʻxshatish, jonlantirish, antiteza, sifatlash kabi sheʼriy sanʼatlarning badiiy asar tahlilida qoʻllaniladigan metodlardan foydalanildi va asarda qoʻllanilgan soʻzlarning oʻxshatish, jonlantirish, antiteza, sifatlash kabi xususiyatlari boʻyicha kartotekasi tuzildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

– Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida Matnazar Abdulhakim sheʼriy asarlari tilining oʻziga xosligini taʼminlovchi metaforalar aniqlandi va badiiy-estetik vazifasiga koʻra maʼlum bir guruhlariga ajratildi;

– Matnazar Abdulhakimning sheʼriy asarlar badiiyatining oʻziga xosligini taʼminlashda sheʼriy sanʼatlarning ahamiyati, ijodkorning soʻzning koʻchimlardan foydalanish mahorati turli misollar asosida izohlandi va ularning sheʼriy asar badiiyatidagi oʻrni belgilandi;

– Matnazar Abdulhakim sheʼriy asarlarida metaforaning imkoniyatlari ochib berildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Matnazar Abdulhakim sheʼriy asarlarining metaforik xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan ushbu bakalavrluk ishi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot

natijalari Matnazar Abdulhakim she'rlarini jihatdan o'rganish bo'yicha izlanish olib boruvchi tadqiqotchilar uchun muhim ma'lumotlar beradi. Shuningdek, o'zbek adabiyotshunosligida metaforalar, she'riy san'atlar bo'yicha o'quv dasturlari tuzishda, badiiy matnning metaforik tahlili bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda tadqiqot natijalari material vazifasini o'taydi. Ishda erishilgan natijalardan o'zbek adabiyotshunosligida alohida olingan ijodkorlar tili va uslubi, xususan, she'riy asarlarning metaforik imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bo'yicha kelgusida magistrlik dissertatsiyalari, malakaviy bitiruv ishlari yozishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Ushbu Bitiruv malakaviy ishi ishining umumiy tavsifi, kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 62 sahifani tashkil qiladi.

I BOB. MATNAZAR ABDULHAKIM – MUMTOZ AN’ANALAR DAVOMCHISI.

1.1. Shoir she’rlaridagi mumtoz ruh manbalari.

O’zbek adabiyoti ulkan manbaga ega daryoga tamsildir. Bu daryoning tarmoqlari qanchalik ko’p bo’lsa, tarmoqlarning ildizi ham shunchalik. Atoyi, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Uvaysiy, Nodira.... Xullas, sanasak, tez fursatda nihoyalamaydigan ro’yxat hosil bo’ladi. Biz ularni mumtoz shoirlarimiz deya ulug’laymiz. Har bir ijodkor qay zamonda, qay sharoitda yashamasin so’zni ilohiy hodisa bilib, so’zga badiiylik libosini kiydiradi va bu orqali o’z ko’nglida tukkan gaplarini ayta oladi. Mumtoz adabiyotimiz kalitli uyga o’xshaydi, kalit topilmasa ochish amri mahol. Bir qaraganda bu uyning qulfi ham hammaga ko’rinavermaydi. Ziyrak nigoh va o’tkir aql bu qulfni ko’ra oladi. Zamon va makonga bo’ysunmaydigan g’oyani, fikrni ayta olgan ijodkor o’z ijodiga yarasha sifatga ega bo’ladi: u barcha zamon va makonlarga daxldor ijodkor. Mumtoz adabiyotimiz namunalarida har bir detal, har bir obraz ramziylikka ega va har bir shoir o’z fikrini yuksak san’at vositasida aytgan. Ularning ijodi usti yaltiroq, ichi qaltiroq emas, badiiyati, she’riy san’atlar bilan bezalganligi o’quvchini qanchalik hayratga solsa, mazmunning ham shunga yarasha ekani hayratimizni yana bir pog’ona oshiradi.

Matnazar Abulhakim serqirra ijod sohibi – iste’dodli shoir, mohir tarjimon va izlanuvchan tadqiqotchi sifatida keng jamoatchilikka tanildi va elda e’zozga musharraf bo’ldi. Shoir badiiy va ilmiy tafakkur ufqlari qamrovli, fikr mohiyati teran, ifoda tarzi ravon ijodkordir. Uning she’rlarida yuksak estetik did, voqelik va kechinmalarni badiiy kashf etish salohiyati yorqin ko’rinsa, ilmiy-ommabop maqolalarida adabiy merosni, xususan, o’tmish badiiy yozma

qadriyatlarini chuqur anglash va idrok etish iqtidori namoyondir. Bunga shoirning "Iymon tuhfasi", "Ikkinchi muallim saboqlari", "Mangulik jamoli" asarlari dalildir. Ijodkor badiiy tarjima sohasida unumli faoliyat ko'rsatgan. U Shayx Najmiddin Kubro, Majiddiddin Bag'dodiy, Pahlavon Mahmud, Xoja Abulvafo Xorazmiy, Bedil, Ogahiy singari ustoz so'z san'atkorlari asarlarini fors tilidan o'zbek tiliga o'giran. Bu tarjimalar asosida "Kim agar ozoddur", "Tabarruk tashrif", kitoblari maydonga keldi. Matnazar Abdulhakim ijodiy yo'nalishlarida she'riyat ustuvordir. Shoirning ilk she'rlar to'plami 1982 yilda "Tiniq tonglar" nomi bilan chop etildi. To'plamdagi she'rlar uning o'ziga xos shoirona nigohi, voqelikni badiiy kashf etish salohiyati borligini ko'rsatdi va katta ijod yo'liga boshladi. Uning Toshkent va Urganchda keyinchalik nashr etilgan "Fasllar qo'shig'i", "Mavj", "Qor qo'shig'i" to'plamlari uni keng kitobxonlar ommasiga tanitdi. To'plamdagi she'rlar mavzu jihatdan rang-baranglik kasb etib, mazmunan teranlashdi, uslubiy turfalik kashf etdi, falsafiy ruh bilan ziynatlandi. O'tgan asrning 90-yillari Matnazar Abdulhakim ijodida yangi bosqichning – yetuklik sari borishning boshlanishi bo'ldi. Bu davrda uning "Yonimdagi daryolar", "Qorachiqdagi dunyo", "Oydinlik", "Bir qujoq gul", "Yolg'iz yaproq" she'riy to'plamlari kitobxonlar qo'liga tegdi. Bu to'plamlarning har birini shoirning nafosat chamanidagi o'ziga xos she'riy guldastasi deyish mumkin. Adabiy tafakkur birmuncha yangilangan, she'riyat siyosat quroli vazifasidan holi bo'lib, haq so'zni aytish, inson va hayotni bo'y-basti bilan badiiy tadqiq etish boshlangan yillarda ijod maydoniga kirib kelgan shoir bu jarayonda davom etayotgan yangicha izlanish va adabiy-estetik qarashlar takomiliga munosib hissa qo'shdi. Uning "Javzo tashrifi", "Ko'prik" kitoblari hozirgi she'riyatni yanada boyitdi.

Matnazar Abdulhakim she'rlari, avvalo, mavzu qamrovligi, shakl rang-barangligi va poetik ma'no hamda shoir nigohining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Ularning barchasiga xos mushtarak xususiyat esa voqelikka faol munosabat, undan chuqur hayotiy mazmun topish va uni go'zal, ta'sirchan ifodalashdir. Bunda shoir aruz va barmoq vaznlaridagi g'azal, to'rtlik,

muxammas, doston kabi janrlar imkoniyatlaridan keng foydalanib, adabiy an'analarni ijodiy ulushi bilan boyitib, o'zidan boy adabiy meros qoldirdi. Alloh ato etgan iste'dod, xalq ijodidan bahramandlik, Sharq mumtoz va jahon adabiyotidan ilhomlanish sifatlarining o'zaro qorishuvi Matnazar Abdulhakimni ko'p qirrali ijorkor sifatida shakllantirdi. Shoir xalq donoligi namunalaridan ilhomlanar ekan, ularni takrorlashga emas, balki boyitishga, ma'no salmog'ini kengaytirishga intiladi. Shoirning yuzga yaqin g'azali muallifning mohir g'azalnavis, bu janrning sir-asrorini yaxshi bilgan ijodkor ekanidan dalolat beradi. Matnazar Abdulhakim g'azaliyotidagi ma'no qirralarini tadqiq qilish, shoirning poetik mahoratidagi an'ana va o'ziga xoslikni qiyosiy o'rganish, an'anaviy obrazlar talqinidagi yangilanishlarni hozirgi adabiy jarayon nuqtai nazaridan o'rganish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbek adabiyotida, jumladan, lirikada ham an'ana va novatorlik adabiyotshunosligimizning muhim masalalaridan biri bo'lib kelgan. Shoir Matnazar Abdulhakim g'azaliyoti poetik ijodda an'ana va novatorlikning yaxshi namunasi. Bu g'azaliyot an'ana bag'ridagi o'ziga xoslikning hozirgi she'riyat uchun ham muhim xususiyat ekanini ko'rsatdi va janrning ijodiy takomilini aks ettirdi. Shoir g'azaliyotidagi mumtoz she'riy an'analarning ijodiy davom ettirilishini o'rganish, an'anaviy obrazlar talqinidagi o'ziga xoslik, poetik mahorat masalalarini yoritish tadqiqotimizning maqsadidir. Taniqli shoir, tarjimon va olim Matnazar Abdulhakim 1948 yilda Xorazm viloyatining Urganch tumanida tug'ilgan. Shoirning otasi Abdulhakim Ollabergan o'g'li madrasa tahsilini ko'rgan, arab va fors tillarini biladigan ziyoli odam bo'lib, farzandida mumtoz adabiyotga barvaqt mehr uyg'otgan. Bo'lajak shoir o'rta ma'lumotni Urganch shahridagi Hamid Olimjon va Dzerjinskiy nomli maktablarda umumiy o'rta ma'lumot oldi. 1972 yilda Rossiyaning Taganrog Davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tugatadi. Oliy ma'lumotni olgach, Matnazar Abdulhakimov o'rta maktabda o'qituvchilik qiladi. "Urganch haqiqati" tuman gazetasida muxbir, qishloq xo'jaligi bo'limi mudiri bo'lib ishlagan. Harbiy xizmatni o'tab qaytgach, Muqimiy nomli o'rta maktabda rus

tili va adabiyotidan dars beradi. Keyinchalik O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Xorazm viloyat bo'limida adabiy maslahatchi, Ma'mun akademiyasi ilmiy xodimi bo'lib faoliyat yuritadi. Matnazar Abdulhakim hali boshlang'ich sinflarda o'qib yurgan paytlardayoq she'rlar yoza boshlagan. Ilk she'rlari tuman gazetasida e'lon qilinadi. 80-yillarda esa Matnazar Abdulhakim ijodi respublika gazetalari va oynomalarida keng e'lon qilina boshlaydi. Shoirning "Tiniq tonglar", "Fasllar qo'shig'i", "Qor qo'shig'i", "Mavj", "Qorachiqdagi dunyo", "Yonimdagi daryolar", "Oydinlik" kabi she'riy to'plamlari, "Kim agar ozodur", "Tabarruk tashrif", "Takallum" singari tarjimalari, "Iymon tuhfasini" nomli ilmiy-tadqiqot ishlari jamlangan kitoblari respublikamizning turli nashrlarida chop etilgan. Shoirning ijodi adabiyot va she'riyat ixlosmandlari tomonidan sevib o'qiladi. Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Majididdin Bag'dodiy, Mirzo Bedil asarlarini forsiydan o'zbek tiliga tarjima qilgan. 2010 yilda og'ir xastalikdan keyin vafot etgan.

Matnazar Abdulhakim hayoti va ijodi bilan tanishar ekanmiz, bevosita ustozlar rag'batini va shoirning ularga ergashishi, ularning ishlarini rivojlantirayotganligining guvohi bo'lamiz. Shoirga "Ilk ustozingiz kim edilar?", - deya savol berganlarida "Ilk ustozim otamlar", - deya javob bergan ekanlar. Darhaqiqat shoirning ilk ustozini - uning otasi Abdulhakim Ollaberganov va uning davrasi, adabiy muhiti bo'lgan. Abdulhakim ota, shoir ta'biri bilan aytganda, "maktab va to'liqsiz oliy ma'lumotni" o'zining qaynotasi Muhammad Karim oxundan olgan. U bog'bonchilik qilgan. Umrining so'nggi yillarida masjidga imomlik qilgan. Ul zot ham adabiyot, san'at ixlosmandlaridan bo'lib, Mahbubiy, Orzu kabi shu davr ijodkorlari bilan qalin o'rtoq, do'st bo'lganlar. Ularning o'ziga xos bo'lgan adabiy muhiti yosh Matnazarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Yosh she'r shaydosi juda ko'plab marta bu davra g'azalxonligi, adabiyotining peshqadam vakillari orasidagi qiziqarli suhbatlar guvohi bo'lgan. Biz shoirdagi iste'dodni faqat qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik orqali kamol topgan deya olmaymiz. Negaki, har bir ijodkorning o'zida adabiyotga, she'riyatga moyillik, tug'ma iste'dod

bo'lmasa u ichi bo'm-bo'sh bo'lgan, chiroyli savatga o'xshaydi. Ustozlarning boy va go'zal ma'naviy dunyosi, hayotni poetik idrok etishlari kabilar shoirdagi she'riy iqtidorni yuzaga chiqargan asosiy omillardir. Xususan, Matnazar Abdulhakimga Orzu (Yangiboy Qurbonniyozov)ning hayot tarzi, ma'naviy dunyosing yuksakligi asarlarida kuylangan to'g'rilik, halollik, insonparvarlik, sof muhabbat va vafodorlik tuyg'ulari katta ta'sir ko'rsatgan.

Boshlang'ich sinflarda o'qib yurgan Matnazarni Orzuning "Sen qozonga yuzi qora deb otma nafrat toshini, Ichida turlik taom pishgan bilan lazatlidir" yoki bo'lmasa, shu g'azalning so'nggidagi: "Orzu qilgil, qanoat, egma har eshikka bosh, Mehnating birla atala joningga rohatlidir" degan baytlari rom etgan bo'lsa ajabmas...

Har qanday taraqqiyotda o'zaro bog'liqlik, davomiylik bilan bir qatorda an'anaviylik ham mavjud. Adabiy taraqqiyotdagi har bir yangi, ulkan hodisa ham o'tmishdagi eng yaxshi an'analarning ijodiy davom ettirilishi natijasida yuzaga keladi. Adabiyot taraqqiyotida g'oyalar, tiplar va tasvirlar vositalari doirasidagi an'anaviylikni farqlash zarur. Bu uch sohadagi an'anaviylik o'ziga xoslik bilan bir-biridan farqlanib turadi. Agar g'oyalar sohasidagi an'anaviylik, asosan, dunyoqarashi bir-biriga yaqin bo'lgan yozuvchilar ijodida ko'zga tashlansa, tasviriy vositalar borasidagi an'anaviylikni turli g'oyaviy yo'nalishdagi ijodkorlar asarlarida ham uchratish mumkin. Adabiy jarayondagi g'oyaviy an'anaviylik to'g'ridan-to'g'ri muayyan ijtimoiy kuchlar rivojidagi davomiylikni, an'anaviylikni aks ettiradi. G'oyaviy an'anaviylik o'tmishdagi fikrlar va qarashlarning yangi sharoitga moslangan, o'zgartirilgan, chuqurlashtirilgan hamda to'ldirilgan holda yangicha ifodalanishidir.

Mumtoz an'analar deganda mumtoz shoirlarimizning ijodiy uslubidan foydalanish tushuniladi. Ular aruz vaznida ash'or bitishgan bo'lsa, bugun she'r deganda barmoq vazniga solingan she'rnigina tushuniladigan bir paytda qay bir ijodkor aruzdan foydalansa, demak, u qaysidir ma'noda mumtoz an'alarni davom ettirgan bo'ladi. Faqat shakl, vazngina emas, obrazlar, ifoda tarzi, ohang ham mumtoz bo'lishi mumkin. She'riyatdagi mumtoz ruh ana shu

birliklarning majmuidir. Matnazar Abdulhakim she'rlarida mumtoz ruh yaqqol seziladi. Shoirning bu yo'nalishi bejizga paydo bo'lmagan. Chunki Matnazar Abdulhakim she'riyat bilan birga tarjima va ilmiy tadqiqotlar bilan ham shug'ullangan. Mumtoz adabiyotni ko'p mutolaa qilganligi va bu ruhni shular vositasida o'ziga yuqtirgani shoir qalbida mumtoz adabiyotga nisbatan chuqur ehtirom bilan birga kuchli muhabbat ham bo'lganligidan darak beradi.

Shoir “Navoiyni o'qib” nomli she'rida shunday yozadi:

Ming mashaqqat bilan chiqdim men,
Qirq yil tirmashdim bu cho'qqiga.
«Shoirmassan. Tushaver qaytib!»
Shunday bo'ldi hukm — o'qilgan.

Tegramga bir boqdim yutoqib
Dunyo ko'rib olmoq g'amida,
Yerga qaytib tushmog'im uchun
Yana qirq yil kerak... kamida.⁵

Shoir shu she'ridayoq o'z ijodining o'qildiziga ishora qiladi. Matnazar Abdulhakimning tarjimadagi ishlari ham mumtoz adabiyot bilan bog'liq, u asosan mumtoz she'riyatimizning forscha namunalarini o'zbek tiliga o'giran. Bu ish tarjimondan katta salohiyatni, chuqur bilimni talab etishi, tabiiy. Shuningdek, Matnazar Abdulhakim ilmiy tadqiqiy ishlarida ham mumtoz adabiyot bilan shug'ullangan. Bu ishlar natijasi o'laroq “Mangulik jamoli” kitobi, “Yaldoni yoritgan nur”, “Muborak mushtarakliklar”, “Xaloskor dard”, “Istiqlol riyozati”, “Siymoda aks etgan siymo”, “Aqldagi qudrat – qudratdagi aql” kabi maqolalari paydo bo'ldi. Matnazar Abdulhakim badiiy tarjima bilan ham shug'ullanib, Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Majididdin Bag'dodiy, Pahlavon Mahmud, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi shoirlarning ruboiy va

⁵ Matnazar Абдулҳаким. Танланган асарлар. 1 жилд, Т.: Фафур Фулом
номидаги НМИУ, 2017

gʻazallari, shuningdek, boshqa qator xalqlar shoirlarining sheʼrlarini oʻzbekchaga oʻgirdi. “Kim agar ozoddur!”, “Tabarruk tashrif”, “Jamoling menga bas” kabi tarjima kitoblari ham uning qalamiga mansub.

Xorazm diyori insoniyatga tuhfa etgan buyuk mutafakkir, shoir, javonmardiylik (futuvvat) tariqatining yirik namoyandasi Pahlavon Mahmudning “Haq fayzi” ruboiylari majmui Matnazar Abdulhakim tarjimasida 1999 yilda bosilib chiqdi. U Muhammad Rizo Ogahiyning “Koʻngil koʻzlari” deb nomlangan gʻazallar toʻplamini ham forsiydan oʻzbekchaga oʻgirdi.

“Mangulik jamoli” kitobi mumtoz adabiyotimizning bir boʻlagi boʻlmish Xiva adabiy maktabini tadqiq etadi. Kitobdan ilmiy maqolalar bilan birga Xiva adabiy maktabiga daxldor shoirlarning forsiy tildagi sheʼrlari tarjimasini ham oʻrin olgan. Shu oʻrinda Matnazar Abdulhakimning ayni shu kitobdan oʻrin olgan “Bulbul tushlari” nomli maqolasi haqida toʻxtalishni joiz topdik. Maqola Ogahiy ijodi haqida boʻlib, Matnazar Abdulhakim Ogahiy gʻazallarini sharhlaydi, har bir sharh oʻzining ilmiy va diniy asosiga ega ekanligi xarakterlidir. “Siymoda aks etgan siymo” maqolasida esa Pahlavon Mahmud ruboiylarini tahlil etadi. Klassik shoirlarni tadqiq etish tadqiqotchidan yuksak tafakkur va chuqur bilimni talab etadi. Yuksak tafakkur va chuqur bilim esa, albatta yuksak didli kitobxon boʻlishni va tinimsiz mutolaani talab etadi. Yuqorida keltirganimiz “Navoiyni oʻqib” sheʼri orqali shoirning Navoiy mutolaasidan olgan taassuroti haqida toʻxtalgandik. “Mangulik jamoli” kitobidan oʻrin olgan “Shifobaxsh dard” nomli maqolasida shoir shunday yozadi: “Ogahiy sheʼrlarini mutolaa qilyapman. Men bunday damlarni oʻziga xos bir maʼnaviy bayram, inson ruhiyatining foniy dunyo anduhlari ustidan gʻalabasi, ezgulikning kayfiyatimdagi barqaror bir muzaffariyati sifatida nishonlayman”.⁶ Bundan koʻrinadiki, shoir mutolaadan katta kuch oladi,

⁶ Matnazar Abdulhakim. Mangulik jamoli. Xorazm Maʼmuriy akademiyasi nashriyati, Xiva, 2009.

mumtoz salaflari bilan g'oyibona hamsuhbat bo'ladi, ulardan ma'naviy ko'mak oladi.

Biz yuqorida shoirning mumtoz adabiyot bilimdoni bo'lganligi, badiiy tarjimadagi faoliyati, ilmiy tadqiqotlari haqida bejizga to'xtalmadik. Matnazar Abdulhakim she'riyatining zalvorli va salobatligi, lirik-falsafiy she'riyatning sara namunalari ekani, eng asosiysi shoir mumtoz an'analarni davom ettirganligi va mumtoz ruhda yozganligining asosiy o'qildizi biz yuqorida sanagan holatlarga bevosita aloqadordir.

Matnazar Abdulhakim mumtoz adabiyotni shunchaki ziyrak o'quvchi sifatida emas, olim kishining teran nigohi ila mutolaa qildi. Ilmiy tadqiqotlarida bu tadqiqning sabablarini ham keltirib o'tadi. Shu jumladan, "Arjumand so'z" nomli maqolasida shunday deydi: "So'z ushbu zamon va kelajak uchun yoziladi. Demoqchimizki, Ogahiy zamon ahlining so'zuqmaslari dastidan kelajakka, jumladan, bizga ham shikoyat qiladi. Binobarin, buyuk shoirimizning zamondosh johillari ustidan bizga qilayotgan shikoyati uning bizga bog'lagan umidi, bizning zimmamizga yuklab ketgan mas'uliyati, bizga qoldirgan vasiyati hamdir".⁷ Shoir bu iqrorlariga she'rlarida ham ishora qiladi:

Seni o'qib nidolar topdim,

O'zimdanda ko'p xatolar topdim.

Alangali qo'shiqlarimga

Xayolimdan sadolar topdim.⁸ (*"Yatimat ut-dahr" turkumidan*)

Matnazar Abdulhakimning donishmand inson va shunga yarasha donishmand shoir ekanligi haqida shogirdlari, do'st-birodarlari "ko'p va xo'b"

⁷ Matnazar Abdulhakim. Manгулик жамоли. Хоразм Маъмун академияси нашриёти, Хива, 2009.

⁸ Matnazar Abdulhakim. Танланган асарлар. 1 жилд, Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2017 (Кейинги ўринларда бериладиган мисоллар ҳам "Танланган асарлар"дан олинган)

yozishgan. Jumladan, ustoz yozuvchi Nabijon Boqiy ta'biricha: “Matnazar og'a to'kis qomusga o'xshardi. U bilan har qanday mavzuda gaplashish mumkin edi. Suhbat malakali bo'lardi. Bachkana mavzular o'z-o'zidan chetga chiqib qolardi, Matnazar og'a o'tirgan davraga bachkana mavzular yaqinlasha olmasdi”.

Matnazar Abdulhakim haqida shoir Mahmud Rajab shunday yozadi: “Navoiy, Bedil, Rumiylar mutolaasida charchash nimaligini bilmas, o'qigan sari kuchga to'lib borardi. Yonida o'tirgan biz tez charchab qolardik. Biz iltimos qilmaguncha mutolaani to'xtatmasdi. Saviyasi past odamlar bilan gaplashganda tez charchab qolardi. Darmoni qurirdi”. Shogirdlari, tengdosh ijodkorlarning xotirlashicha, mumtoz adabiyot mutolaasi Matnazar Abdulhakimning doimiy odati bo'lgan va ruhiyat oromi uchun shoir bu odatni kundalik vazifa qilib olgan. Buyuklar she'riyatidan tarjima ham shoirning mahoratini yuksaltirgani, shubhasiz. Bu haqida shoirning o'zi “Tarjimonning badiiy ishini sayohatga chiqqan ikki kishiga qiyoslash mumkin. Ular bir-biriga bog'liq. Ularning yashash tarzi, dam olishi, ishi, ta'bi har xil, shuning uchun o'rtasini topish lozim. Shoirning she'rini o'zbek tiliga tarjima qilganda asar aslining chegarasidan chiqmaslik kerak. Albatta, zamondosh muallifning asarini o'girish osonroq, chunki shu muhitda yashayapsan, ruhiyatni sezasan va bilasan, kerak bo'lsa u bilan maslahatlashasan. Lekin mumtoz asarlar o'zining shartini qo'yadi. Muallif yo'q, lekin asar yashamoqda. Shunda tarjimon diplomat bo'lishi, nozik farqni hisobga olishi va asarning asliga peshvoz chiqishi lozim” deydi.⁹ Mumtoz adabiyotimizdagi falsafa shoirning jism-u joniga singib ketgani she'rlaridagi umumxulosada ko'rinadi: favqulodda yakun va xulosaning originalligi. Shuningdek, shoirning metaforalari ham mumtozona.

Umuman olganda Matnazar Abdulhakim she'riyati mumtoz adabiyotdan sug'orilgan, lirika libosiga o'ralgan va falsafiylikdan to'yingan she'riyatdir.

⁹ Matnazar Abdulhakim. Мангулик жамоли. Хоразм Маъмун академияси нашриёти, Хива, 2009.

1.2. Matnazar Abdulhakim g'azallaridagi badiiy san'atlar tahlili.

She'riyat – tuyg'ularning poetik suratidir. Shoir so'zlarini istagan qolipga solmasin, xoh aruzga o'rab, xoh barmoqqa tushirmasin, aql bilan so'zlarni bo'ysundirolmaydi. Zero she'r tuyg'ular zamiriga quriladi. Bu haqida Matnazar Abdulhakimning o'zi shunday deydi: “She'r shoirning yuragi yetib, aqli yetmagan nuqtalardan boshlanadi”.¹⁰ Matnazar Abdulhakim ko'nglida qaynab oqayotgan tuyg'ularni ko'hna aruz vazniga ham bo'ysundira olgan bir shoirdir. Shoirning “Tanlangan asarlar”i 1-jildidan 27 ta g'azal va 1 ta muxammas o'rin olgan (tarjima qilingan g'azallardan tashqari)

G'azallarining bosh mavzusi an'anaviy ishq mavzusida bo'lib, shoir ya'ni oshiq o'z mahbubasiga bo'lgan izhori ishqini kuylaydi.

Matnazar Abdulhakim aruz va barmoq vaznlaridagi g'azal, to'rtlik, muxammas, doston kabi janrlar imkoniyatlaridan keng foydalanib, adabiy an'analarni ijodiy ulushi bilan boyitib, o'zidan boy adabiy meros qoldirdi. Alloh ato etgan iste'dod, xalq ijodidan bahramandlik, Sharq mumtoz va jahon adabiyotidan ilhomlanish sifatlarining o'zaro qorishuvi Matnazar Abdulhakimni ko'p qirrali ijorkor sifatida shakllantirdi. Shoir xalq donoligi namunalaridan ilhomlanar ekan, ularni takrorlashga emas, balki boyitishga, ma'no salmog'ini kengaytirishga intiladi. Shoirning yuzga yaqin g'azali muallifning mohir g'azalnavis, bu janrning sir-asrorini yaxshi bilgan ijodkor ekanidan dalolat beradi.

“Dardindadir” radifli g'azali bir nechta she'riy san'atlarga qurilgan. Masalan, birinchi baytga e'tibor bergan:

Dilbarim birlan yurak bir ittifoq dardindadir,

¹⁰ Matnazar Abdulhakim. Manгулик жамоли. Хоразм Маъмун академияси нашриёти, Хива, 2009.

Dilbarim bo'lsa kecha-kunduz nifoq dardindadir.¹¹

Ushbu baytda “kecha” va “kunduz”, “ittifoq” va “nifoq” so'zlari zid ma'noli so'zlar o'laroq “tazod” san'atini hosil qilmoqda. Tazod arabcha so'z bo'lib, antiteza, ya'ni qarshilantirish usulining klassik adabiyotda qo'llangan bir ko'rinishi. Tazodda qarama-qarshi qo'yilgan ikki tomon ayni zamonda uzviy ravishda bir-biriga bog'lanib keladi. “Dilbarim” so'zining takror qo'llanishidan “takrir” san'ati ham hosil bo'lgan. Takrir - «takrorlash» ma'nosini ifodalovchi lafziy san'at bo'lib, she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish ushbu san'atning asosiy xususiyati sanaladi. Shoir so'zlarni satrlarga tizib ketaverarkan, she'riy san'atni aynan yasamaydi, so'zlar jilolanib, rang-baranglashib boraveradi, shu jilodan she'riy san'atlar paydo bo'ladi.

Talpinar tinmay charog'on ko'zlariga borlig'im,
Telbavor parvonalardekdir, chiroq dardindadir.

Ushbu ikkinchi baytda “parvona”, “chiroq”, “charog'on” kabi so'zlar “tanosub” san'atini hosil qilsa, “ko'z”ning “chiroq”qa, “borliq”ning “parvona”ga qiyos etilishidan “tashbeh” san'atini hosil qiladi. Tashbeh – ”o'xshatish” ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tanosub esa she'r baytlarida ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'atidir.¹²

Osmon yanglig' umr goh sokinu, goh larzada,
Gohida moviy sukut, goh qaldiraq dardindadir.

¹¹ Матназар Абдулҳаким. Танланган асарлар. 1 жилд, Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017

¹² Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –Т.: O'zbekiston, 2002.

Bu baytda esa “umr” “osmon yanglig” deb “tashbeh” qilinadi, “sokin” va “larza”, “sukut” va “qaldiraq” so’zlari “tazod” qilinadi.

Matnazar, yuksakdan uchgan turnalardek baxt qushi

Bo'lsa ham boshimning ustinda, yiroq dardindadir.

So’nggi baytda “baxt qushi” “yuksakdan uchgan turnalar”ga o’xshatiladi va g’azal so’nggida shoir boshimning ustidagi baxt qushi turnalardek yiroqqa uchishning dardida deb aytadi.

Matnazar Abdulhakim g’azallaridan yana biri “Bor” radifli g’azalida metafora she’rda tadrijiy davom etadi.

Necha yillik ayriliqdan jonlarim yonmog'i bor,

Jizg'anak bo'lmoq uchun talvasali to'lg'onmog'i bor.

Barcha baytlarda ayriliqdan keyingi oshiqning ahvoli gumon qilinadi, necha yillik ayriliqdan keyin oshiq jonining yonishi, jizg’anak bo’lmoq uchun talvasali to’lg’onmog’i bor, oshiqning ko’zlari och, joni tashna, ko’z jonidan to’ysa, jonning bu ko’zyoshga qonishi borligi tasvirlanadi.

Dildagi har bir umid yo'lingda so'nmasdan burun

Miltirab yulduz kabi un chekmay ingramog'i bor.

Ushbu baytda esa “umid” “yulduz” kabi un chekishi, ingrashi borligi ta’kidlanadi va tashbeh hosil bo’ladi.

Ming yil uxlab yotgan ul tog'lar sari qo'ysang qadam,

Tashrifingdan tebranib dahshatli uyg'onmog'i bor.

Ushbu baytda shoir “ming yil uxlab yotgan tog’lar” sari qadam qo’ysa, bu tashrifdan tog’larning dahshatli uyg’onishini tasvirlab, mubolag’a san’atidan foydalanadi. Shu o’rinda mubolag’a san’atining uch turi borligini aytib

o'tishimiz zarur: tablig' – aqlan ishonish mumkin bo'lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lgan mubolag'adir.

Kecha kelgundur debon ul sarvu gulro' kelmadi,

Ko'zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi. (A.N.)

Ig'roq - belgi yoki harakatni aqlan ishonish mumkin bo'lsa ham hayotda yuz berishi mumkin bo'lmagan tarzda kuchaytirib tasvirlash demakdir.

Chu oshiq ongladi qilg'och taammul,

Ki yeldin tushkudekdur yer uza gul.

Er o'pmaklikka majnundek ham o'ldi,

Quyosh ostida gardundek ham o'ldi.

(A.N.)

G'uluv – aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lmaydigan tarzda tasvirlash san'ati:

Oh ursa olamni buzar tovushi,

To'qson molning terisidan kovushi. («Alpomish».)

Yuqorida baytda qo'llangan mubolag'aga aql bovar qilishi mumkin lekin hayotda yuz berishi mumkin emas, shundan kelib chiqsak bu mubolag'a ig'roqdir.

Yor azob bergum dedi o'lguncha, lekin, Matnazar,

Tushmagil tahlikaga, aldoqchining tonmog'i bor.

She'rning oxirida shoir o'ziga murojaat qiladi, barcha gumonlar yaxshilikka ekani, aldoqchining o'z gapidan tonishi ham borligini eslatadi va tahlikaga tushmasligini aytadi.

Matnazar Abdulhakimning yana bir g'azali "Yo'q" radifli g'azaliga ham bir qancha she'riy san'atlar jo bo'lgan.

Mening Layliyu Shirin o'rnida sen sarvinozim yo'q,

Na Farhodga, na Majnunga, iloj qancha, qiyosim yo'q.

Birinchi baytda “talmeh” san’ati qo’llanadi. Talmeh - («nazar solmoq») she’r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san’atidir.¹³ Ushbu baytda ham oshiq o’zini Farhod va Majnunga qiyos qila olmasligini yonida Layli-yu Shirini ham yo’qligiga bog’laydi va shu orqali Navoiyning qahramonlariga ishora qiladi.

Sen har bir iltifot etgan ko'ngil osmonda lochindir,
Qolib chetda nigohingdan, mening bu imtiyozim yo'q.

Tashbehga e’tibor bering: “yorga iltifot etgan ko’ngil” “lochin”ga o’xshaydi, oshiqda esa bu imtiyoz yo’q, demak “lochin” tashbehi oshiqqa tegishli emas. Keyingi baytda oshiq yor ketib qolgach, umidlar ko’zidan ko’ngliga botganini, quyosh yanglig’ lovullashga tuganmas ehtirosi yo’qligini aytadi. Ko’ngildagi umid quyoshga o’xshatiladi. Yuqorida tahlil etganimiz bir g’azalda umid “yulduz”ga o’xshatilgan edi.

Asarning kitobxon ruhiyatiga, hissiyotiga ta’sir ko’rsatishida ko’zlangan badiiy muddaoni emotsional tarzda ifodalashda Matnazar Abdulkhakim ham mumtoz she’riy san’at turlaridan yuksak mahorat bilan foydalangan. U o’z g’azallarida tashbeh, tazod, talmeh, tashxis, iyg’om, irsoli masal, mubolag’a kabi bir qancha she’riy san’at masalalaridan foydalangan va badiiy go’zallikni kashf etishda o’z uslubiga ega. She’riyatda qo’llangan vositalar ijodkor ko’zlangan bosh maqsad emas, deydi shoir. Badiiy vositalarning zamirida insoniy g’oya, asar mazmuni, qahramonning kayfiyati yotadi. Shu g’oya, mazmun, kayfiyatni ifodalashda esa ular vositachilik vazifasini o’taydi. Darhaqiqat juda to’g’ri fikr. Buni biz shoirning g’azallariga tatbiq qiladigan bo’lsak, quyidagi manzaralarning guvohi bo’lamiz.

Odatda, ishqiy mavzuda yozilgan g’azallarning katta ko’p foizini ma’shuqaning husn-u jamolini ta’rif etish tashkil qiladi. Ta’rif-u tasnifni

¹³ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –T.: O‘zbekiston, 2002.

keltirishda esa, shoir bevosita tashbeh san'atiga murojaat qiladi. Tashbeh - o'xshatish. Uning mohiyati so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa, xarakter yoki xususiyatlarni, ular o'rtasidagi mavjud bo'lgan biror o'xshashlik, umumiylik nuqtayi nazaridan eslashdan iboratdir. O'xshatishdan maqsad tasvir obyektini bo'lgan predmet yoki harakatning yoxud ularning biror xususiyatlarini yorqinroq tasvirlash, yoki chuqurroq ochib berishdir.

Masalan:

Aqiq yanglig' edi lablar, tishing o'xshar edi durga,
Ular haqda mening aygan so'zim bir tosh bo'lib chiqdi.

Yoki:

Bilolmam bormu darkorim sango bir ozgina, aslo,
Bilib qo'y qomati shamshod, mango sen ko'p kerakdirsan.

Yoki bo'lmasa:

Joy olibdur ko'zlaringning ustidan bir qarlovoch,
Ko'zi qiymas talpinib, uchmoqa qiyg'ochim, gulim.

Ba'zan aytilayotgan fikr shoirning o'zini qanoatlantirmagandek bo'ladi. Yerni, uning xatti-harakatlarini qanday ifodalashni ham bilmay holadi va uni charx urayotgan falakka, oftobga, gohida mohtobga o'xshatadi:

G'arib boshimda girgitton charx urgan falakdirsan,
Gohi oftob, gohi mohtob bo'lib tun-kun halakdirsan.

Mumtoz she'riyatda yerni "so'zlari asal", "shakarguftor", "so'zlari dur", "so'zlari qand" kabi an'anaviy kabi tashbehlarni ko'plab uchratganmiz. Matnazar Abdulhakimning hijronzada lirik qahramoni yerning so'zlarini o'qqa o'xshatadi. Bu ham an'anaviylik oqibati, yerning bepisand bag'ritoshligi:

Uning noz birla bitgan so'zlari o'qlarga timsolidir,
Kelar, lekin butun borliqni qilmasdan yaro kelmas...

Shoir badiiy fikrni bo'rttirish, har bir baytdan kuzatgan maqsadni tasdiq ettirish uchun bir misrada qo'yilgan maqsadni shu baytning ikkinchi misrasida rad va inkor qilib, qarama-qarshi fikr tug'diradigan san'at usuli

tazoddan keng foydalangan. Yuqoridagi g'azallarda ham tazodga duch kelgandik va uni sharhladik.

Yaro dilni shirin til birla qattiq aylading achchiq,
Bilolmasman, shakarsanmi, bilolmasman namakdirsan.

Yoki: Mening zorim edi shodlik, mening zorim edi anduh,
Bu zorim endi ketmasmish, u zorim endi kelmasmish.

Bu baytlarda shoirning ruhiy kayfiyati ifodalangan bo'lib, tazod usulidan mohirona foydalanishi natijasida lirik qahramon va uning ma'shuqa tasviri chizilgan.

Qalbini zabt etgali qildik muhabbatni qurol,
Qarshimizga qahrini aylab yaroq otlandilar.

Oshiq va ma'shuqaning ziddiyatli holati tasvirini ifodalar ekan shoir yana shunday deydi:

Sarvinoz bo'y tortdilar deb hech quvonmang, ey ko'ngil,
Mehri topmasdan kamol, jabr-u baloga otlandilar.

Shoir g'azallaridagi bunday misralarni juda ko'plab keltirish mumkin. G'azalning mazmunini yanada oydinlashtirish, aytilmoqchi bo'lgan fikrning katta ma'noga ega ekanligi va o'quvchi yodida uzoq muddat saqlanib qolishida irsoli masal san'atining roli katta.

Y.Is'hoqov buni shunday izohlaydi: " Irsoli masal gapda yoki she'rda maqol va matal, hikmatli so'zlarni muayyan maqsadda misol keltirish yo'li bilan yuzaga keluvchi san'atdir. Badiiy asar tilining xalqona bo'lishida xalq og'zaki ijodidagi maqol va matallar, hikmatli so'zlarni mohirlik bilan asarda ifodalash katta salohiyat talab qiladi..."

Yurmagaylar aqlim-u ko'nglim ikav bir yo'lda hech,
Yuk erur nodonga dono, nodon ham donoga yuk.

Yoki: Ikovlon bir-birovga daldadirmiz,
Bo'lur bemorga bemor tasalli.

Yoki bo'lmasa:

Uning loqayd dilidan men muhabbat iltijo etdim,
Agarchi qulf eshikka non tilab hech vaqt gado kelmas.

Bunday hayotiy lavhalardan she'riy topilma yaratish shoirda nozik idrok, sinchkovlik va kuzatuvchanlik, tasavvur dunyosining keng bo'lishini talab qiladi:

Meni behuda kutmanglar visol ayshida xushchaqchaq,
Agar to'y bo'lsa bir uyda, unga motamsaro kelmas.

Nafaqat, mumtoz she'riyatda, balki barmoq vaznidagi hozirgi mavjud she'rlarda ham talmeh san'atining samarasi katta. Bu san'at shoirga bir ishora bilan chuqur ma'noni ifodalash imkonini beruvchi san'atdir. U istiora, tashbeh kabi san'atlardan farqli o'laroq, ijodkorga tarixiy yo afsonaviy voqealarga, mashhur asarlar va qahramonlar obraziga ishora qilishi va shu yo'l bilan o'z fikrini muayyan holda kuchaytirish uchun imkoniyat tug'diradi.

Yusufdan ayrilib qolgan harib, Yaqub timsoliman,

Kelur diydamga nur kelsang agar bolam kelur kelsang.

Yoki:

Menga darkordir malak, Majnun uchun Laylo kerak,
Menga darkordir falak Majnun uchun sahro kerak.

Yoki:

Oqil ey hamroqdarim, kirmoqdaman Qays qavmiga,
Ortga qayting, ey siz, bu yoqda sahro boshlanur.

Shoir talmeh san'atiga murojaat qilishi bilan o'z ruhiy olamini yanada chuqurroq ochishga harakat qilgan. O'z yerini intizorlik bilan kutgan lirik qahramon- shoir o'zini Yaqubga o'xshatadi. U Yaqub payg'ambar va uning o'g'li Yusufdan, ko'r bo'lib qolgan otasi Yaqub haqidagi rivoyatga asoslanib, yer kelsa, diydasiga nur kelishini aytadi. Bu yerda diqqat o'g'lining tirikligini eshitib, ko'ylagini ustiga tashlaganida ko'zlari ochilgan Yaqubga qaratiladi, eslatiladi.

Qays obrazi ham an'anaviy obrazlardan sanalib ishq dardi boshiga tushgan har bir kishi o'zini Majnunga o'xshatishi asos qilib olingan. Qays qavmiga, holatiga tushgan oshiqning ahvoli hammamizga ma'lum. Unga faqat Laylo kerak, o'zga hech narsa darkor emas.

“So'z - tafakkur xizmatida, san'at - fikr va g'oyaning ko'rki targ'ibotchisi”, - deydi taniqli adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov. Inson tafakkuri har narsaga qodir, albatta. Fikrni emotsional bo'yoqlar orqali, badiiylik va tabiiylikni uyg'unlashtirish orqali shoir o'z uslubining serqirraligini namoyon etadi. Shoir ruhiy jarayonni ifodalar ekan, tashxis san'atidan ham san'atkorona foydalanganini ko'ramiz.

Jildirar suv, tol shivirlar, ham gujumlar o' chekar,
Ishqda borliq yodiga turli talaffuzlar kelur.

Yoki:

Qoqib qars, qaltiroq, chaqnar chaqinlar,
Nekib holimga ko'k faryodmi yig'lar.

Shoir qalbidagi dard va hijron alamlarining o'ti orom va sururga, iztirob, anduhga jon baxsh etadi.

Ketdilar aylab xiyonat bizga orom-u surur,
Iztirob, anduhga tahsin ko'p, sadoqatlandilar.

Bulardan tashqari, biz Matnazar Abdulhakim g'azaliyotida mubolag'aga:

Ta'rif etsam mahvashim kokillari zanjirini,
Yilda uch yuz-u oltmish besh zim-ziyo yaldo kerak...

Takror (takrir):

Mening zorim edi shodlik, mening zorim edi anduh
Bu zorim endi ketmasmish, u zorim endi kelasmish.

Iyg'om (ikki ma'noli so'z ishlatish):

Sen qarab qiyg'os ochildi borlig'imda ming chaman,
Bir charaqlab navbahor, yurtimga bog'lar keltirur.¹⁴

¹⁴ Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar. 1 jild, T.: Faфur Фулом номидаги НМИУ, 2017

kabi she'riy san'at vositalaridan mohirlik bilan foydalangan.

Bundan tashqari, g'azallardagi qofiyalarning bir-biriga mazmun va ma'no jihatdan uyg'unligi, radif san'atini qo'llab g'azal bitish ijodkordan puxta bilim va uquv talab qiladi. Odatda, har qanday so'zni ham radif tarzida muvaffaqiyatli ishlatish qiyin masala. Radif qilib tanlangan so'zga ma'lum bir g'oyaviy badiiy muddao yuklanadi. Chunki misra, bayt yoki bayt oxirida muntazam sur'atda qaytarilib turgan bir so'z yoki so'z birikmasi o'quvchining diqqat e'tiborini o'ziga jalb qiladi, shoir badiiy va fikriy muddaosi nimada ekanligini uqtiradi.

Shuningdek, Matnazar Abdulhakim mumtoz adabiyotimizda nisbatan kam qo'llangan tadrij, ruju, tashxis, husni ta'lil, mumtane, tamsil va boshqa she'riy san'atlardan ham foydalanganki, bu shoirning salohiyati yuksak bo'lganidan dalolatdir.

Shoir g'azalda tasvirlariga jonli ruh olib kirmoqchi bo'lsa, dialoglardan foydalanadi, tasviri baytdan baytga izchil bo'lib o'tadi. Shu yo'sinda tadrij san'ati yuzaga keladi. Tadrij (arabcha) - klassik poeziyadagi badiiy usullardan biri bo'lib, darajama- daraja rivojlantirib borish manosini ifodalaydi. Tadrij voqeaband she'rlarga xos bo'lib, she'rdagi bir obraz yoki (tushuncha) o'xshatishlar vositasi bilan rivojlantirilib boriladi. Kitobxonning ko'z o'ngida bir obraz (yoki tushuncha) ning o'xshatishlar sirasi bilan ifodalangan mukammal badiiy lavhasi gavdalanadi. Masalan:

Yordan ayru ko'ngul mulke durur sultoni yo' q,
Mulkkum, sultoni yo'q, jisme durur kim, joni yo'q
Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlar, kim ul,
Bir qaro tufroqdek durkim, gulu rayhoni yo'q.
Bir qaro tufroqkim, yo'qtur gulu rayhon anga
Ul qarong'u kechadekdurkim, mahi toboni yo'q...

(Navoiy.)

Matnazar Abdulhakim ijodida ham tadrij san'ati qo'llanilgan o'rinlar uchraydi. Fikrimizga "Tog' kabi" deb nomlanuvchi g'azali misoldir. G'azalda poetik tasvir matla'dan boshlab maqta'gacha rivojlanib boradi.

Tog' kabi yuksaldimu, torlar misoli titradim,
Shu qadar ojizligim bor, shu qadardir qudratim.

Birinchi baytda lirik qahramonning yuksalishi barobarida tor kabi titrashi tazod qilingan, shu o'rinda ojizligi va qudratliligi ham bir darajada ekani ta'kidlanadi. Poetik holat keyingi baytda yana rivojlantiriladi:

Yoshlarim yog'du sohib ko'ksimga tim-tim tomdilar,
Gohi yulduzlarga, goh shabnamga yuqdi illatim.

Lirik qahramonning ojizligining dalili bu ko'z yoshdir, uning ko'z yoshi yog'du sohib tomishi illat deb baholanadi va bu illat yulduz bilan shabnamga yuqqani aytiladi. Tog'ga qiyosdan boshlangan poetik tasvir darajalanib ojizlik belgilari kuchaytiriladi.

Yam-yashil tuyg'ularimga sen ketib tegdi xazon,
Qovjirab, yaproq bo'lib bir-bir to'kildi hasratim.

Endi nigoh tuyg'ularga qaratiladi, yam-yashil tuyg'ular yor ketgach xazonga duchor bo'lgani va ular hasratga do'nib bir-bir to'kiladi. Ko'z yoshlarning shabnam va yulduzga sochilishi endi tuyg'ularga ko'chganini kuzatamiz, bu ham matla'dagi ojizlikni ochib beradi.

Husningga mag'rur bo'lib aytding: «O'zingdan ketma, yor»
To yashaysan menda, mumkinmi o'zimdan hijratim.

Ushbu baytda yuqoridagi holat davom ettiriladi, endi ojizlikning sababchisi yor tilga olinadi, u husniga mag'rurlanib, oshig'iga qarata o'zidan ketmasligini aytadi, oshiq esa bu holdan norozi, u mahjubasi toki o'zida yashar ekan o'zidan hijrat qilishi mumkinligini aytib e'tiroz qiladi.

Chiqdi yodingdan nigohim, bo'ldi ovozim unut,
Ko'zlarimni chirt yumib oldim, tovushsiz o'kradim.

Navbatdagi baytda ojiz oshiq yorning nigohini yodidan chiqaradi, ovozi unutadi, ko'zlarini chirt yumib olganicha tovushsiz o'kraydi. Shu o'rinda tadrij yanada kuchaytiriladi. Keying baytda esa shoir tadrijdan biroz chetlashadi.

Taqlid etdim qushlarim — qardoshlarimning fe'liga,
Kecha-kunduz nolalar qildim, saharda mudradim.

Ushbu baytda oshiq qushlarga taqlid qilganini, ularga o'xshab saharda mudrab kecha-kunduz nola qilganini aytadi va qushlar o'zining qardoshi ekanini ham bildirib o'tadi.

Ko'kda chaqmoqdek xayol sershiddat erdi, Matnazar,
Men uni to'mtoq qalam birlan qog'ozda sudradim.

Maqta'da shoir o'ziga murojaat qiladi va xayolning ko'kda chaqmoqdek sershiddatligini aytib, o'zi uni qalam bilan qog'ozda sudradim deydi. G'azalda oshiqning kayfiyati, yor ishqida chekayotgan iztirob surati tasvirlanadi. Tadrij shoirning tasvirlarni chizishida bag'oyat qo'l keladi.

Matnazar Abdulhakim ko'p o'rinlarda g'azallarida ifodalagan fikrga dalil sifatida biror hayotiy misolni keltirib o'tadi va tamsil san'atini qo'llaydi. Tamsil - «misol keltirish» ma'nosini bildirib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'atdir. Misollarni ko'rib o'tamiz:

Sen endi uyg'otishni tongdan o'rgan,
Sochib nur, asta-asta uyg'otar tong.

Yoki: Ishqi yo'qlar mulki, aytgil, bo'lmasin nevcun talon,
Bor bir o'g'ri har qadamda, bitta ham bedor yo'q.

Yoki: Raqib ishqingda o'ldim der, ishonma, chunki o'rgimchak
Tirik qolmoq uchun qurgay o'ziga-o'zi dor har kun.

Yoki: Seni sevgach men o'z qalbinga ham bir e'tiqod qo'ydim,
Bilingay o'tda oltin soxtami yoki asl, jonim.

Shoir poetik ifodani obrazlar vositasida yanada boyitish uchun “tashxis” san'atidan ham foydalanadi. Har bir tashxis shoirning kayfiyatini, holatini

yaqqolroq ochib beradi. Tashxis - («jonlantirish») hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish san'atidir.

Bo'lib saf-saf ko'ngil so'rg'ay daraxtlar bir o'zim o'tsam,
Hayotsan-ku, axir, jonim, bu ne yanglig' marosimdir.

Yoki: Dard chekib ruxsori gullar o'z-o'ziga qo'ydi o't,
Ishq aro ko'pdir azob, otash aro ozor yo'q.

Matnazar Abdulhakim g'azallarini o'qir ekanmiz, ma'noviy kashfiyotlardan bir karra zavqlansak, so'zni jilolantirish orqali hosil qilgan badiiy san'atlardan yana bir karra maroq olamiz. Shoir mumtoz an'analarni davom ettirib g'azalchilikda o'zining so'zini ayta oldi.

I BOB XULOSASI

Matnazar Abdulhakim she'riyatda mumtoz an'analarni davom ettirgan ijodkor hisoblanadi. Bunga shoirning mumtoz adabiyotdan yaxshigina boxabarligi, mumtoz adabiyot bilimdoni bo'lganligi asosiy o'rin tutadi. Ushbu bobda o'rganilgan birlamchi jihat shoirda she'riyatidagi mumtoz ruh manbalarini aniqlash bo'lsa, keyingi jihat shoir g'azallaridagi she'riy san'atlarni tahlil qilish edi.

Ushbu jihatlarni hisobga olib, quyidagicha umumlashma xulosaga kelindi:

- 1) Shoirning mumtoz adabiyot vakillari bo'lmish Pahlavon Mahmud, Bedil, Ogahiy, Tabibiy kabi shoirlarning forsiy tildagi asarlarini o'zbek tiliga o'girishi va tarjima sohasidagi izlanishlari shoirning badiiy tafakkuriga sezilarli darajada ta'sir etgan;
- 2) Shoir g'azal, muxammaslari bilan mumtoz an'analarni davom ettirgan va bu an'analarni yanada boyitgan;
- 3) Matnazar Abdulhakim g'azallarida ko'plab she'riy san'atlardan, jumladan, tashxis, tazod, talmeh, tanosub, tashbeh va yana boshqa san'atlardan unumli foydalangan.

Matnazar Abdulhakim mumtoz an'alar davomchisi sifatida o'zbek adabiyotida salmoqli o'ringa ega.

II BOB. Shoir she'riyatida metaforalarning qo'llanilishi

2.1. Matnazar Abdulhakim she'rlaridagi metaforalar tahlili.

So'z san'ati bo'lmish adabiyotning istalgan turi borki o'zining badiiy yangiligi bilan o'quvchini hayratlantira oladi. Adabiy yangilik bu badiiy topilma, yangi qofiya, yangi obraz, favqulodda topilgan badiiy detal, yangi fikr, chuqur ochib berilgan o'zgacha xarakter bo'lishi mumkin va x.k.

She'rga aniq ta'rif berib bo'lmaydi, zero she'riyat tuyg'u ekanini ta'kidlash bilan cheklanamiz. She'r o'quvchiga ta'sir qilishi uchun tuyg'uning baland harorati bilan birga bir qancha unsurlar ham xizmat qiladi.

No'mon Rahimjonov bu haqida "Mustaqil nuqtai nazari aniq, fikri lo'nda va yaxlit bo'lgan shoir she'rlarida so'zlar gul-gul ochilib ketadi. To'liq mag'zi bilan she'rning badiiy kamolini belgilaydi" deydi.¹⁵

Ustoz Bahodir Karim ta'biricha "She'r – tuyg'u surati. Unda emotsiya, obraz, badiiy san'at bo'lishi kerak; she'rda shoir subyekti, individual uslubi, "men"i, o'z ovozi aks etishi lozim".¹⁶ Ustozning she'r haqidagi ushbu mushohadasi bo'yicha she'r va shoirlarni tasniflasak, darhaqiqat, shoirlarni ikkiga ajratib olishimiz oson kechadi: ta'bi baland va shuning aksi bo'lgan shoirlar.

She'rda lirik ohang bo'lishi lozim, hatto sərbastda ham she'rdagi barcha so'zlarni, misralarni yaxlit qilib turadigan lirik ohang bo'ladi. She'r rubob simlari kabi tarang tortilishi zarur, shu taranglik ohangni yuzaga keltiradi. Vazn buzilishi, so'zlarning misralarda yoyilib ketmasligi kabi kamchiliklar she'rning go'zalligiga soya soladi. She'rda intizom bo'lishi kerak, Bahodir Sodiqov yozganidek, "poeziya eng yaxshi intizomdagi eng yaxshi so'zlar qo'shini". Rahimjon Rahmat esa she'rga "she'r - shoirning uyg'oq holda ko'rgan tushi" deb ta'rif beradi. Umuman olganda she'r haqidagi mubohasalarga tugal bir yechim qo'yib bo'lmaydi. She'r Matnazar Abdulhakim tili bilan aytganda "shoirning yuragi yetib aqli yetmagan

¹⁵ Н. Раҳимжонов. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. Т.: "Фан" нашриёти, 2007

¹⁶ Б. Карим. Рухият алифбоси. Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2016

nuqtalardan boshlanadi”.¹⁷ She’r metafora bilan go’zallashadi, she’r metafora bilan yuksaladi, she’r metafora bilan hayratga soladi.

Metafora (grekcha *metaphora* – ko’chim, istiora so’zidan) – asosiy poetik ko’chim (trop)lardan biri. Ko’chim ikki xil bo’ladi: o’xshashli ko’chim – *metafora*, o’xshashsiz ko’chim - *metonimiya*.

Metafora ikki narsa o’rtasidagi o’xshashlikka asoslangan o’xshashlik ko’chim bo’lsa, metonimiya ikki tushuncha o’rtasidagi yaqinlikka asoslangan o’xshashsiz ko’chimidir. Metafora qo’llash – so’zni o’z ma’nosidan ko’chirib, o’z xususiyatlari va ayrim tomonlari bilan shu so’zda ifodalangan narsaga o’xshagan biror predmet yoki hodisani ta’riflash demakdir. Demak istiorada so’zning o’z ma’nosi bilan ko’chim - yangi ma’nosi o’rtasida o’xshashlik bo’lishi shart.

Ma’lumki to’liq o’xshatishda to’rt element bo’ladi:

- 1) o’xshagan narsa;
- 2) o’xshatilgan narsa;
- 3) o’xshash sifat;
- 4) o’xshatish qo’shimchasi.

Istiora qisqa o’xshatish bo’lgani uchun unda to’liq o’xshatishga oid to’rt element mavjud bo’lmaydi. Chunonchi, *ochiq istiorada* “o’xshagan narsa” o’rnida “o’xshatilgan narsa” aytiladi.

- Kechir, arslonim, hozir uyingga bormoqchi edim, dedi Xadicha xola quvonib (Oybek, “Oltin vodiyan shabadalar”). Xadicha xolaning bu gapida Ulug’ Vatan urushida g’alaba bilan qaytgan O’ktam kuch-qudratda arslonga o’xshatilib, gapda shu o’xshatilgan narsaning o’zigina qoldirilgan.¹⁸

Yopiq istiorada esa “o’xshatilgan narsa” o’rnida “o’xshagan narsa” – kishi yoki hodisa qoldiriladi va o’xshatilgan narsaning biror sifati, xarakterli

¹⁷ Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar. 1 jild, T.: Fafur Fulom
nomidaги НМИУ, 2017

¹⁸ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –T.: O’zbekiston, 2002.

xususiyati o'xshagan narsaga taqiladi, shundan uning nimaga o'xshatilayotgani kitobxonga ma'lum bo'ladi. Masalan:

Qolgan so'zlar tutqizmadi o'z baridan. (G'.G'ulom)

Jilva qilar chamanlar, qad ko'tarar shaharlar. (Uyg'un)

Ba'zan istiora kishi, narsa va hodisani tasvirlab, uning sifati holatini bildirib keladiki, bu metaforik sifatlash deyiladi. Chunonchi: *oltin vodiy, o't yurak, tosh ko'ngil, po'lat bilak* kabilar metaforik sifatlashlardir.

Matnazar Abdulhakim she'rlarining har birida yangi bir topilma, yangi bir metaforaga duch kelamiz.

Shoir qo'llagan metaforalar ba'zan butun bir she'rga, ba'zan butun bir bandga yoyib yuborilgan bo'ladi va o'sha she'r yoki band zamirida yaxlit bir metafora yotadi. Uning yaxlitligi esa metaforik qismlarning birikuvidan kelib chiqadi. "Bir so'z" nomli she'rida shoir "so'z" bilan bog'liq istioralarni qo'llaydi. Bir bandda o'sha so'z lirik qahramonning "horg'in ko'zlariga botgan" bo'ladi, uning o'zi gung-u yuragida o'sha so'z "mag'izdek qotgan" bo'ladi, bir bandda esa so'z o'rniga umr yuz berayotganini aytsa, bir o'rinda so'zdan og'irroq narsa yo'qligiga iqror bo'ladi.

Men senga atalgan shunday mevaman,

Yuragimni ushat, ol shu so'zimni.

Sendan ayamayman, seni sevaman.

Men uzib beraman senga o'zimni.

So'nggi bandda shoir istioraning bir uchini chiqazadi, lirik qahramon – meva, bu istiora keyingi misralarda quyuqlashadi, mahbusasiga qarata yuragini ushatishini, so'zini olishini so'raydi, uni sevishini va yoridan hech narsani ayamasligini metafora bilan ochiqlyadi. Lirik qahramon hatto qurbon bo'lishga-da tayyor. Shu nuqtada Matnazar Abdulhakimning yap-yangi metaforasi she'rxonni hayratga sola biladi, shoir senga jonimni beraman demaydi, uni metaforali qilib "men uzib beraman senga o'zimni" deydi. Bandning boshida esa lirik qahramon o'zining "meva" ekaniga urg'u bergan edi. She'rning darajasi shunda: hammaga ma'lum ifodalardan qochish va yangi

topilma topa olishda. “Pushaymon” nomli she’rida ham metaforani birdan ilg’ash mushkul. Ushbu she’rida metaforik sifatlashlar ko’p qo’llangan: “majruh g’urur”, “baxtli xotira”, “lazzatli tush”. Shoir – kayfiyatning asiri. Ruhiyat ma’lum kayfiyat og’ushida qolar ekan, bu qovishuvning mevasi o’laroq she’r dunyoga keladi. Uning tarzi esa kayfiyatning darajasiga bog’liq bir holdir.

Iqbol bo’lib kelgan edi bizlarga,

U sofdilni sinab bergandi taqdir.

Shoirning tasviri g’aroyib. “Pushaymon” aslida o’tgan zamonda “baxt” bo’lib kelgandi, taqdir uni sinab bergani yetmagandek oshiq va ma’shuq buni kechikib angladi. Anglaganlarida esa u “pushaymon”ga evrilib bo’lgandi. Hislar toptalganida oyoqlarning yonishi, bu yonuvdan jonga olov tutashishidan keyingi manzaraga boqing: endi ularning majruh g’ururi ayanchli, go’yo lattadan qilingan yalovga qiyosdir.

U biz uchun endi baxtli xotira,

O’ngidan kelmagan lazzatli bir tush.

Bizning yuraklarda ilon bor edi,

Bizning yuraklarda yasholmasdi qush.

“Pushaymon” baxt siyratli qush bo’lib kelgan edi, endi esa u baribir pushaymon, oshiq va ma’shuq uchun baxtli xotira, nari borsa o’ngidan kelmagan lazzatli bir tush, xolos. Bu qush ularning ilon bor yuragida yashay olmas edi. “Ilon” esa bu ularning “g’urur”i. shoir o’zining afsusini, pushaymonini ohorli metaforalar orqali tasvir etadi.

“Visol” nomli she’rida Matnazar Abdulhakim oshiqlarning azaliy orzusi visoldan so’z ochadi. Lirik qahramonning ko’zlarida juft bardosh chaq nab, g’amlarining bariga chek qo’yishidan boshlangan poetik tasvir keyingi satrlarda o’tmishning qa’riga hijron degan tosh cho’ktirishiga o’tadi.

Shahzodaga tekkan alvasti

Iztirobim, bas-e, taltaydi.

Ishonmayman men unga asti,

U yosuman yomon aldaydi.

“Iztirob” “shahzodaga tekkan alvasti”dek taltayganidan yozg’iradi lirik qahramon. Oshiqning ishonchi shunchalar mustahkamki, u iztirobning vasvasiga ishonmaydi, u yosumanning aldashiga ishonadi.

Uqubatlar — g’urbat sipohi,
Qilayotir bir-bir jon taslim.
Salom, mening xazonrez chog’i
G’olib kelgan yam-yashil faslim.

Ushbu badda oshiqning holati ishonchi tufayli yuqoriladi, “uqubatlar” “g’urbat sipohi”ga qiyoslanib, metafora yasaladi. Keyingi bandlarda lirik qahramonning holatiga e’tibor beramiz: yor haqida uning nutqi biyron, hatto mahjubasi haqida bo’lsa jimligi ham chechan.

Men uchun sen jon bilan tengsan,
Menga sig’mas kulfatning haddi.
Meni kimki, nimaki yengsa
Sendan judo qilib yengadi.

She’r xotimasida “yor” lirik qahramon uchun “jon”ga barobar. Shunday ekan unga kulfatning haddi sig’masligi aniq. Endi lirik qahramonni nima bo’lsa ham, kim bo’lsa ham yordan judo qilib yengadi. Yordan ayrilish esa jondan ayrilish. Umuman ushbu she’rda lirik qahramonning visol yo’lidagi qat’iyati ifoda etiladi. “Armon” she’rini o’qiganimizda “armon” istiorasi e’tiborimizni tortadi: shoir avval “armon”ni gulga o’xshatadi, lekin uning gul ekaniga shubha bor, u bir lahcha cho’g’ga qiyosdir, buning oqibati esa ayon, uni ushlasa qo’li kuyadi.

Cho’g’ni o’ynar og’zidan sohib,
Faqatgina masxarabozlar.

She’r xotimasida “armon” o’xshatilgan “cho’g’”ni faqat masxarabozlar og’zidan ochib o’ynaydi. Bundan anglashiladiki, masxarabozlar omma ko’z oldida buni hiyla-aldov bilan bajaradi, haqiqatda esa bu “cho’g’”ni ushlab bo’lmaydi.

“Sir” nomli she’rda yuqorida tahlil etganimiz she’rlardagi oshiq holati davom etadi. Endi lirik qahramon yorni hayot bilan teng ko’rgani sabab hayotini u bilan baham ko’rganini aytadi. Taassufki, lirik qahramon sevgisining natijasi havas qilgulik emas:

Peshonam keng mening, bardoshim ham keng.

Lekin sig'may qolding ikkisiga ham.

Oshiqning bardoshi ham, peshonasi ham keng, ammo yor har ikkisiga ham sig'may qoladi. “Sog'inish - asov dardlar uyuri” metaforasi she’rga joziba bag’ishlaydi. Oshiqqa bu “uyur” tahdid soldi. Bardoshi keng oshiq esa yuragida “po’lat zirh” bo’lmasa-da, bunday dardlarga bardosh berolmasa-da, quduqqa sir so’ylamaydi, dardini qog’ozga to’kadi.

Lekin men quduqqa so'ylamadim sir,

Seni aytdim faqat jimjit harflarga.

Poetik tasvir oshiq halovatining qahatga kelganida davom etadi, so’ngra “muqaddas telbalik” metaforik sifatlashi yuzaga chiqadi. She’rning yakunida esa yana bir badiiy topilmaga duch kelamiz. Yuqoridagi she’rda lirik qahramon “men o’zimni uzib beraman” deya qurbon bo’lishga ham tayyorligiga ishora qilgan bo’lsa, ushbu she’rning yakunida yana bir novatorlik qiladi:

Men seni na do'st, na g'animga aytdim,

Ravo ko'rganim yo'q har kim-har kimga.

Aytsam, seni men o'z sha'nimga aytdim,

Otsam, seni otdim o'z yuragimga!

“Sir” bu – ma’shuqa. Oshiq esa o’z sirini hammadan qizg’anadi, uni na do’stga, na g’animga aytadi. Aytsa bu sirni o’z sha’niga aytadi, otsa ham o’z yuragiga otadi.

Matnazar Abdulhakim qo’llagan metaforalar ayni vaqtda o’zining badiiy topilma ekanligi bilan ham o’ziga xosdir. Bitta she’rda shoir yer sharini avtobusga o’xshatish orqali metafora yasaydi:

Shundan beri meni qiynar o'zga hol,

O'zga uqubatdan yuragim g'am yer.
Ba'zan havolanib gar sursam xayol
O'sha avtobusga mengzab ketar Yer.

Matnazar Abdulhakim she'rlaridagi metaforalar asosan lirik qahramon va ma'shuqaga (sen va u tarzida) qaratilgan:

1) Yor -

a) bog'ga o'xshatadi:

Sen bilan Urganchga kelardim,
Bog'larga cho'mardi Urganchim.

b) gulga o'xshatadi:

Axir sen nihoyat nafis bir gulsan,
Men bo'lsam bor-yo'g'i saksovul.

c) qushga:

Biz-chi, bir-birovga talpinib yetmay
Mo'lturablar yurdik, faromush —
O'rtadagi qalin tiniq shishani
Fahm etmagan ikki sho'rlik qush.

d) qo'lga:

Deylik,
qo'li kesib tashlangan odam
yo'q qo'l zirqirashin his qilar emish.
Sevgilim,
men seni sog'indim qattiq.
Azob chekmakdaman.
Og'riyapsanmi?

e) yulduzga:

Ikki yildan keyin sen haqda kuylar
Faqat chaqalog'ing, yulduzim.

f) ma'buda, farishtaga:

Mo'jizalar bari sensiz — jo'n,
Uvollar bo'ladi faryod ham, oh ham.

Kel, birgina nafas yerga qo'n,
Ma'budam, farishtam, iloham.

g) bahorga:

Zolim qish o'z vaqtida ketmadi, xolos,
Bahorim, bu surbet qorlarni kechir.

2) O'zi (lirik qahramon) –

a) qorga o'xshatadi:

Kechir ko'zyoshingga o'xshab qo'ysam sal,
Kiprigingga asta qo'nayotganda.
Shodligingga qisqa umrimni berib,
Oh-fig'on qilmasdan, nolimasdan, jim,
Asta yer qa'riga ketaman erib
Senga atab gullar yuborish uchun... (“Qor qo'shig'i”)

b) qushga:

Biz-chi, bir-birovga talpinib yetmay
Mo'lturablar yurdik, faromush —
O'rtadagi qalin tiniq shishani
Fahm etmagan ikki sho'rlik qush.

c) fasllarga:

Qahratonda seni ko'mdim qish bo'lib,
oppoq xayolimni ustingga o'rtiding.
Bahor bo'ldim — yashil orzuga to'liq,
uyg'onding va so'ngra... ohista bo'rtiding.

d) arslonga o'xshatadi:

Bilmaganga solib o'zingni
Kulyapsan la'l... kulyapsan aqiq...
Bizda, axir, xabaring yo'qmi,
Arslon ovi qilingan taqiq.

e) qal'aga:

Shunday muhtasham bir yolg'izlik bilan
Kunlarim o'tmoqda shikva-nolasiz.

Na u qal'angizdan bo'lasiz xalos,
Na bu qal'angizdan xabar olasiz.

f) mavhum hislarga:

Men so'ngsiz bir azob, muhtasham bir dard,
Qo'rg'oshindek og'ir xayolga o'g'il.

g) quyoshga:

Qoshimni bir kun tark etganingdan so'ng
Botib-botib ketgay boshim zaminga.

Shoirning quyidagi she'rida uch xil o'xshatish qo'llanilgan:

Aqiq yanglig' edi lablar, tishing o'xshar edi durga,
Ular haqda mening aytgan so'zim bir tosh bo'lib chiqdi.

Yor lablarining aqiqqa, tishlarining esa durga o'xshatilishi hamda yoriga qarata oshiqning tosh kabi jim qotishi bu tasvirga juda mos tushganligi ham Matnazar Abdulhakimning yuksak mahorat egasi ekanligini ko'rsatadi.

Quyidagi she'rda "yanglig'" vositasi yordamida o'xshatish hosil qilingan.

Oppoq libos kiygan farishta yanglig',
Keldingiz... ko'rdingiz... ketdingiz.

Bu xayol og'ushidagi lirik qahramonning holati. She'rning keyingi o'rinlarida lirik qahramon yor ta'rifini va unga o'xshatishlarni vositalarsiz bayon qiladi:

Kokillari uzun-uzun tabibim,
Ko'zlarida sehr, fusun tabibim.
Meni boshdan-oyoq yoqmoqqa kelgan
Boshidan oyog'i husn, tabibim.

Matnazar Abdulhakim she'riyati o'xshatishlarga boy. Badiiy nutqda shoir tomonidan hosil qilingan o'xshatishlar poetik matnning badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Shoir qo'llagan metaforalarida favqulodda o'xshatishlarni kuzatamiz. Bunda "o'xshatilgan narsa" emas, "o'xshatiladigan narsa" yangilik ekani bilan

o'ziga xosdir. Shuningdek, yuqoridagi misollarni umumlashtirib xulosa qiladigan bo'lsak, shoir she'rlaridagi istioralar ko'proq ochiq istioralardir. "Paxtalar — chanoqlar kulgisi, Tokning ko'zyoshlari uzumlar" kabi ochiq istioralar o'zining badiiy topilmaligi bilan ham shoir mahoratidan bir ulgu ekanini namoyon etadi.

2.2. "Ko'chki" ("Yatimat ut-dahr ohanglarida") turkumining metaforik xususiyatlari.

Metaforalar Matnazar Abdulhakim she'riyatida turli ko'rinishda namoyon bo'ladiki, bu ijodkorning tafakkuri doirasi keng ekanligi, xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlaridan yaxshigina xabardor ekanligidan dalolat beradi. Xalqimiz azaldan sherni kuch-qudrat, lochin, burgut, qarchig'ayni yuksaklik, musichani beozorlik, kaptarni beg'uborlik timsoli sifatida ulug'lab keladi. Shoirning "arslon" so'zini metafora sifatida qo'llashida shu holat sezilib turadi:

G'urur bilan tikilib qolding,
Lablari la'l... lablari aqiq.
Bizda, axir xabaring yo'qmi,
Arslon ovi qilingan taqiq.

"Arslon" metaforasida shoir nozik o'xshatish orqali o'ziga "to'r tashlayotgan" mahubbasiga o'zining arslon ekaniga ishora qiladi. Yana bir she'rda esa o'zini qushga o'xshatadi:

Mehrlarim yakunlandilar...
Barham topdi muhabbatlarim.
Boshga kulfat tushdi. Tegdi o'q,
Qushman. To'zg'ib ketdi patlarim.

Matnazar Abdulhakim she'riyatida qo'llanilgan metaforalar tanlanishiga ko'ra matn mazmuniga to'la mos keladi, obrazlilik, jozibadorlik, ta'sirchanlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini namoyon qiladi. Ayniqsa, shoirning sevimli yorga nisbatan gul, oqqush metaforalarini qo'llashi matn mazmunini yanada

kuchaytiradi. Metaforalar kitobxonni lirik qahramonning ichki olami his-tuyg'ulari, quvonch-u umidlari bilan tanishtiradi, uning o'zini ham o'ylashga majbur qiladi, shu bilan birga unga cheksiz zavq bag'ishlaydi. Matnazar Abdulhakim ijodida qo'llanilgan metaforalar badiiy pardozi bo'lib qolmay shoirning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahorati to'g'risida ham ma'lumot beradi. Shoir tilimizdagi mavjud metaforalardan foydalanish barobarida o'zi ham yangi metaforalar yaratadi. Bunday individual metaforalar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi:

Dunyo elak... odamlarni u,
Bir lahza ham tinmasdan elar.

She'rning so'ngida bu metafora sinekdoxaga ham asos bo'ladi:

Bu elakning ustini ko'ring
Ko'ringizlar siz taglarini.
Unlarni qor kabi yog'dirar,
Qoldiradi kepaklarini.

Ushbu she'r mazmunida xalq naql qilgan "Yomonga o'lim yo'q, yaxshiga kun yo'q" iborasi yodga tushadi

Matnazar Abdulhakim tomonidan yaratilgan quyidagi metaforik ifodalangan fikrlar ham e'tiborga molik:

Endi mayli umr adog'ida,
Go'zallikdan qolsin bir qarzim.
Chizilmagan chehrang dog'ida
Mo'yqalamim sochdek oqarsin.

Quyidagi parchada qo'llanilgan metaforalar shoirning so'z tanlashda xalq og'zaki ijodi materiallaridan mohirona foydalanganligini ko'rsatadi:

Sababini so'ylasam, bu doston
Qirq kecha-kunduzga uzalar.
Qon talashgan sayin orom topar jon
Tuz sepganing sayin tuzalar.

Poetik tasvirni kuchaytirib, o'xshatish vositasida kutilmagan holatlarni aks ettirish, kitobxonni zavqlantirib, hayratga solish Matnazar Abdulhakim individual uslubiga xos. U oshiq yigit ruhiy holatini tasvirlashda shu vaziyatga mos keluvchi vositalardan, hammaga tanish bo'lib qolgan so'zlardan, oddiy tashbehlardan qochadi. Buning o'rniga o'quvchi kutmagan, bugungi tilshunoslikda yetakchilik qilayotgan antroposentrik nazariyaga mos keluvchi yangi poetik tasvir yaratadi.

Hozir esa dovdur bir kulgu,
Talmovsilar hayiqib mungdan.
To'ymikan deb azaga kelgan
Masxaraboz kabi – labingda...

Tasavvurni biroz ishlatishga undaydigan ushbu misralarda yorning kulaymi kulmaymi deb turgan holati chiziladi, uning yuzidagi kulgu esa masxaraboz kabi deyiladi, kuldiraman deb to'yga kelsa, azaning ustidan chiqib qolgan.

Ruhiy iztirobda o'tirgan oshiq tabiatdagi har bir hodisani o'z holatiga mengzaydi, undan o'ziga va mahubasiga o'xshash jihatlarni axtaradi.

Ruhimdagi sanoqsiz gullar,
Ayriliqda qolar so'lishib.
Goh oy kabi botib ketasan,
Va chiqasan asta to'lishib,

She'rning so'nggi misralarida lirik qahramon ichki olam, his-tuyg'ular manzilidan yana voqelikka qaytadi, yon –atrof yana o'z asl qiyofasida bo'y ko'rsatadi, ammo endi o'zining holatini tasvirlaydi. Ushbu oxirgi misrada shoir "kabi" so'zini ishlatmaydi, ohang va qofiya talablari uchun atay tushirib qoldiriladi:

Men quling ham dard tilsa dilni,
Bag'ri yomon qattiq bir toshman.
Xudo ko'rsatmasin bir botsam
Qaytib chiqmaydigan quyoshman.

Tasvir shu yerda tugaydi, ruhiyat olamida kezgan, har bir hodisada o'zini, o'zidagiga o'xshash holatlarni ko'rgan lirik qahramon juda zaif quyoshga

aylanadi. Inson ruhiy holatining bu tarzda ochib berilishi faqat Matnazar Abdulhakim uslubiga xos deyish mumkin.

Shoir ijodida eng go'zal gavharlardan biri, shubhasiz, "Yatimat ut-dahr" ohanglarida" turkumidir. Agar Matnazar Abdulhakim ijodini bir dengizga qiyos etsak, ushbu turkum shu dengizning eng qimmatbaho marjonidir. Turkumning yozilishiga muallifning o'zi izohlaganidek, Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ut-dahr" asari sabab bo'lgan. Turkumning asl nomi – "Ko'chki"dir. "Tanlangan asarlar" I jildda ushbu turkum xuddi shu nomda berilgan va janri turkum deb berilgan. Adabiy janrlar va dostonning janr xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bu she'rlarni yaxlit doston deyish biroz bahsli holatdir va tadqiqot ishimizda "turkum" deb keltiramiz. Chunki turkumdagi har bir she'rda yaxlit mushohada va tugallik bor. Ba'zi she'rlar o'zidan oldinga yoki keyingi she'rning davomidek tuyuladi, lekin har bir she'rda mantiqan tugallik bor. Turkum 144 ta she'rdan tashkil topgan. Har bir she'r o'zining shirali tili, go'zal poetik ohangi va ayniqsa noyob metaforalari bilan o'ziga xosdir.

Quyidagi she'rda "yoshlik" bilan bog'liq metaforani uchratamiz. Unda "yoshlik" "azim daraxt"ga o'xshatiladi, shoxalarida "ishq mevasi" borligi, o'sayotgan joyi esa "hayot va o'lim sahrosining vohalari" ekani ta'kidlanadi.

Yoshligim bir azim daraxtdir.

Ishq mevasi —shoxalarida.

U o'sadi hayot va o'lim

Sahrosining vohalarida.

Yana bir she'rda "yod"ning dilga to'lishi quyidagi she'rda "qadahga sharob quyilishi"ga mengzaladi:

Kelding, yodi dilimga to'ldi

Quyulgandek qadahga sharob.

Ushbu turkum mumtoz tashbehtar qo'llanganligi bilan o'ziga xosdir. Yana bir she'rga e'tibor qaratamiz:

Saodating mening baxtimda,

Baxtim ishva va nozing ichra.
Ishva-nozing vujudingdadir,
Vujuding, oh, libosing ichra.
Men bir lahza talpinmay qo'ysam
Sim-siyoh cho'g' qaroqlaringga,
Libosingni tikkan ignalar
Sanchilsinlar oyoqlaringga.

Yorning saodati oshiqning baxtida, baxt esa yorning ishva va nozi ichida, ishva-yu noz yorning vujudida bo'lsa, vujudi libosi ichra yashirin. Agar oshiq yorning sim-siyoh ko'zlariga talpinishdan to'xtasa vujud yashiringan libosni tikkan ignalar oyog'iga sanchilishini aytadi va o'zining ishqda sobit ekanligini shu poetik tasvir orqali ko'rsatadi.

Yana bir she'rda "zirak" "chayon"ga o'xshatiladi:

Bilmadim, kim sari talpinar
Oq siyna ostinda yuraging,
Demoqchiydim quloqlaringga,
Chayon bo'lib chaqdi ziraging».

Matnazar Abdulhakim ushbu turkumda yorga nisbatan turli yopiq istioralarni qo'llaydi. Quyiday parchaga qaraymiz:

Ey kamonchi, nishoningga men,
Aytgil, qachon yetib boraman.

She'rning boshida yorni "kamonchi" istiorasi bilan tilga oladi va she'r so'nggida yorning sifatlarini kuchaytirib "sayyod" istiorasidan ham foydalanadi:

Yurak bilan bir bo'lib qachon
Orom olarkanmiz, sayyodim!

Ushbu turkumdagi eng go'zal she'rlardan biri, shubhasiz, quyidagi she'rdir:

Noliganim yo'qdir davrdan,
Deganim yo'q zamonni yomon.

Shunday bo'lsa hamki sha'nimga
Ravo ko'rdi yomonni zamon.
Bir o'q uzdi qoq yuragimga,
Qoq bo'lindi mehr va qahr.
Yarmi uning Xuroson bo'ldi,
Yarmi esa — Movarounnahr.

Shoir ushbu she'rda kutilmagan metaforik tasvirni chizadi: yorning oshiq yuragiga uzgan o'qi qoq ikkiga bo'linib yarmi mehr, yarmi qahr bo'lmoqda, yarim qahr va yarim mehr esa Movarounnahr va Xurosonga mengzaladi.

Shoir turkumda juda ko'plab metaforalar, ochiq va yopiq istioralardan foydalanadi. “Muqaddas bir qushlar bozori”, yomon kimsalarning “qarg'a” istiorasi bilan berilishi (“Sizlarga hech yomonligim yo'q, Buncha qarg'illamang, qarg'alar”), “ikki qatra ko'z yosh misoli, ikki yonga ketdik ajralib” kabi oshiqning afsusi ham metafora bilan berilishi fikrimizga isbotdir.

Kipriklaring maysadek momiq,
Ko'zlaring ham chashmadir — zilol.
Sochlaringning rayhoni xushbo'y,
Ikki qoshing esa — juft hilol.
Bardosh berolmayman bu baxtga,
O, go'zallik! O, ko'rk! O, husn!..
Ijizat ber qo'yib yuboray
Bu o'tloqqa ko'nghim ohusin...

Ushbu she'rda shoir yor kipriklarini “momiq maysa”ga, ko'zlarini “chashma”ga, ikki qoshini “juft hilol”ga o'xshatadi. Yorning go'zalligidan bag'oyatda ta'sirlangan oshiq nigohida yorning butun vujudi “o'tloq”ga mengzaladi va she'r so'nggida lirik qahramon mahubasiga “shu o'tloq”ga “ko'ngil ohusi”ni qo'yib yuborishiga ijizat so'raydi. Shoir bu poetik tasvir orqali visol lavhasini chizadi.

Bundan tashqari “Neni tortsin endi sho'rlik bosh, Yo'q-ku, axir, boshimning boshi”, “Duv-duv meva tukkan vaqtingda Gullab-gullab turasan qiyg'os”, “Watanni tark etib ko'zimga Ko'chmakdami yo ikki daryo”, “O'lamanmi yo qolamanmi, Qo'lingdaman endi, jarrohim”, “Kunduz — tunning hushyorligidir, G'aflatidir kunduzning oqshom”, “Qor ostida yotibdi dunyo Tuxumning ichida jo'jadek”, “Piyolada tovlanadi choy, Erib tushgan oftob bo'lagi”, “Mukammaldir husning. Ta'rifga Qiladi ko'p g'o'rlik shoirlar. Ulug'layman deb seni nuqul Kamsitadi sho'rlik shoirlar” kabi metaforalarni ham qo'llaydiki, ushbu misollar metafora bo'lishi bilan birga ayni vaqtda go'zal badiiy topilmalar hamdir.

II BOB XULOSASI

II bobdan umumlashma xulosa chiqaradigan bo'lsak quyidagi xususiyatlar aniqlandi:

- 1) shoir qo'llagan metaforalar asosan “lirik qahramon”ning o'zi va “yor”ga nisbatan qo'llangan metaforalardir;
- 2) Matnazar Abdulhakim she'rlaridagi istioralar ham ochiq, ham yopiq istioralardir, yopiq istioralar asosan “yor”ga nisbatan ishlatilgan;
- 3) Shoirning “Ko'chki” (“Yatimat ut-dahr” ohanglarida”) turkumidagi metaforalar mumtoz adabiyotda qo'llanilgan tashbehlarni yodga solidi, Matnazar Abdulhakimning ushbu turkumda qo'llagan metaforalari o'zining yangichaligi va favquloddaligi bilan o'ziga xosdir.
- 4) Har bir metafora ayni vaqtda badiiy topilma ekanligi bilan ham ahamiyatlidir.

III BOB. Matnazar Abdulhakim she'rlaridagi badiiy san'atlar tahlili.

3.1. Shoirning she'riy san'atlardan foydalanish mahorati.

Zamonaviy she'riyat xoh modern, xoh an'anaviy yo'sinda bo'lsin, badiiy bo'yoqlar, she'riy san'atlar bilan yanada poetik go'zallikka ega bo'ladi. Har bir ijodkor qalam tebratar ekan badiiy ifodani mazmunan quyuqlashtirish, uni his-hayajonlarga yo'g'irish uchun so'z salohiyatiga tayanadi. Har bir so'z shakl-shamoyili, rang-bo'yog'i, o'z salmog'i va ohangiga ega. Har bir ijodkor oddiy so'zlovchidan so'z sohibiga, undan esa so'z san'atkoriga ko'tarilishi uchun "so'z sezgisi", "so'z jozibasi", "so'z sehri" kabi bosqichlarni egallashi lozim. Shoir qalam tebratar ekan uning ihtiyorida bir necha vositalar mavjud. Bu vositalarning eng muhimlari badiiy tasvir vositalari, she'riy san'atlardir. She'riy san'atlar yillar mobaynida adabiyotshunosligimizda shakllanib, "ilmi bade" nomini olgan badiiylik ilmining asoslaridir. Matnazar Abdulhakim she'rlarida metaforalar bilan birga boshqa badiiy san'atlardan ham unumli foydalangan. Quyida shoir qo'llagan badiiy san'atlarni tahlil qilamiz.

Matnazar Abdulhakim she'rlarida jonlantirish san'ati ko'p uchraydi. Turli jonsiz narsalar jonlantiriladi va ularga insonga xos xususiyatlar ko'chiriladi. "Jonlantirish metaforaning maxsus bir turi sifatida og'zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham, o'xshatishlar kabi juda qadimdan ishlatilib keladi. Bu shunday san'atki, unda kishilarning harakatlari, his-tuyg'ular; so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chiriladi. Boshqacha qilib aytganda. jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so'zlaydigan qilib tasvirlash jonlantirish deyiladi"¹⁹. Quyidagi she'riy parchada bir nechta jonlantirishlarni kuzatamiz:

Tuyg'ular toliqar — kutmoq tahlika,
Boshlardagi hush ham toliqadi.

¹⁹ Қўнғуров Р. Танланган асарлар. – Самарқанд: СамДУ, 2008, 378-бет.

Osmon toliqadi, malikam,

Qush ham toliqadi.

Yoki: Ro'za tutdim. Barcha parhezlar

Mendan tuta boshladi parhez.

Matnazar Abdulhakim ijodiga xos individual uslubning bir jihati uning anaforalardan ko'p foydalanishidir. Anafora (grekcha *anaphora* – *yuqoriga chiqarish* so`zidan) – stilistik figuralardan biri bo`lib, misralarning boshida yoki prozaik badiiy asardagi gaplarning oldida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh so`z yoki iboralarning takrorlanib kelishi.²⁰

Nafas takrorlanar, bu – abad,

Nafas takrorlanar, bu – azal.

Betakrordir faqat muhabbat.

Yoki: Na bir darak gap bor maktublaringda,

Na bir ergash gap bor maktublaringda,

Faqat yurak gap bor maktublaringda,

Faqat tergash gap bor maktublaringda.

Odatda ijodkorlar jamiyatdagi salbiy hodisotlarga o'zining fikrini piching yoki kinoya yo'sinida bildiradi. Matnazar Abdulhakim insonlar tabiatidagi qusurlar ustidan ironiya orqali kuladi. Ironiya (grekcha *eironeia* – *zimdan kulish, kesatish* so`zidan) – zohiran jiddiy aslda esa masxaraomuz, ya'ni zimdan kulish bilan, kesatib aytilgan piching so`z va iboralar. Ironiya hajvning yoki hazil mutoyiba – yumorning bir ko`rinishidir.²¹ Ayni zaminda, ironiya o`z ma'nosidan ko`chirilgan so`zlarning ham bir turi bo`lib, bunda so`z va iboralar teskari ma'noda, ya'ni sirtqi mohiyatiga nisbatan qarama-qarshi ma'noda keladi. "Yatimat ut-dahr" ohanglarida" turkumida ironiyali she'rlar ko'p. Quyidagi she'riy parchaga e'tibor bering:

Bu elda eng hayoli odam

²⁰ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –T.: O'zbekiston, 2002.

²¹ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –T.: O'zbekiston, 2002.

Yechinadi chiqib maydonga.

Bu elda eng soddadil odam

Dars beradi to'da shaytonga.

Hatto eng soddadil odamigacha shaytonga dars beradigan elda eng hayoli odam maydonga yechinib chiqadi. Shoir keyingi bandda bunday chirkin elga nisbatan o'z nafratini ironiya orqali bildirishda davom etadi:

Bu elda eng halol odamning

Son-sanoqsiz harom yeri bor.

Eng vafodor har bir xotinning

Kamida o'n-o'n besh eri bor.

Eng halol odamning son-sanoqsiz harom yeri bo'lsa, kamiga eng vafodor xotinning o'n-o'n besh eri bo'lsa harom odam yoki bevafo xotinni ta'riflab bo'ladimi? Shoir nigohi bu jirkanch manzaraga kinoya bilan qaraydi.

Bu yerda har qarich tuproqda

Ming o'lim chang solar tirilib.

Bir-birining quchoqlarida

Ketayotir bari qirilib...

She'rning yakunida ironiya yanada kuchayadi, bir-birining quchog'ida yaqinlar bir-birini qirib yubormoqda. Bundan ortiq fojia bo'lishi mumkinmas. Muallif antiteza (qarshilantirish)dan ham foydalanadi va ironiyaning badiiy kuchini yanada kuchaytiradi. Ironiya shoirga o'z nafratini lirika talablaridan kelib chiqqan holda "hayo bilan" tasvirlashga ko'maklashadi.

Matnazar Abdulhakim oksimoron san'atidan ham unumli foydalangan. Oksimoron (grekcha *oxymoron* – *o'tkir ma'noli bema'nilik so'zidan*) – o'z ma'nosidan ko'chirilib, bir-biriga zid tushunchalarni ifodalab kelgan so'zlar, komponentlari mohiyat e'tibori bilan bir-biriga tamomila qarama-qarshi bo'lgan ko'chma ma'nodagi birikma.²²

²² Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –T.: O'zbekiston, 2002.

Yuragimda esa sho'x-sha'n, xushchaqchaq
O'yinlarga tushib, qilasan bazm.
Mening hayotimga sira kelmasim,
Mening hayotimdan sira ketmasim.

She'riy parchada lirik qahramon yorini “uning hayotiga sira kelmasligi” va “hayotidan sira ketmasligi” kabi ikki zid tushuncha orqali ta'riflaydi.

Matnazar Abdulhakim ijodi nihoyatda boy va jozibadorki, istagan she'riy san'atni topishimiz mumkin. Shunday san'atlardan biri alliteratsiya san'atidir. Alliteratsiya (lotincha *lit(t)era – harf so`zidan*) – badiiy nutqni yanada ifodaliroq qilish uchun ko`pincha she`rlarda, ba`zan prozada bir xil, ohangdosh tovushlarni takrorlash.²³

Apostrofa (grekcha *apokryphos – yashirin, qalbaki so`zidan*) – jonsiz narsa yoki hodisaga jonli narsa va hodisadek yohud hozir bo`lmagan kishiga shu yerda hozir turgandek murojaat etishdan iborat poetik nutq usullaridan biri.²⁴

Allegoriya (lotincha *allegoria – kinoya, qochiriq, kesatish*) – biror mavhum tushunchani konkret narsa, hodisa orqali ifodalagan majoziy, ya`ni o`z ma`nosidan boshqa ma`noga ko`chirilgan so`z va iboralarning bir turi.

Sarkazm (grekcha *sarkasmos – qiynash, ozor berish so`zidan*)- achchiq zaharhanda, itehzoli ta'na, piching. Sarkazm, ayniqsa, satirik tasvirda fosh etishning muhim usullaridan biridir.

Qish. Darchadan termulaman jim,
Emas bugun ko'cha ko'chadek.
Qor ostida yotibdi dunyo
Tuxumning ichida jo'jadek”

²³ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2010.

²⁴ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –T.: O'zbekiston, 2002.

Shoirning bu tashbehi satirik metafora, erka tashbeh. O'quvchiga bu hazilomuz o'xshatish o'zgacha ta'sir ko'rsatadi, undan zavqlanadi. She'rda sarkazm kinoyasiz namoyon bo'lmoqda. Tuxumning sirti oq bo'lgani kabi yerni ham qor qoplaganidan keyin shu ko'rinishga kelgan. Bu holatni shoir chiroyli qilib “masxara” qiladi. Bu esa – sarkazm.

Matnazar Abdulhakim she'rlarida satiraga moyil tashbehlar, ma'no tovlanishlari ko'p uchraydi.

Barmoqlaring – husayni uzum,
Labing – g'uncha, yanog'ing gulmish.
Sening og'zing qoshida pista
O'z og'zini katta deb kulmish.

“Pista” orqali shoir nozik kinoya qiladi, bu mubolag'a, xolos, shoirlar oshirib yuborishadi degan ta'kidni aytadi. Ammo she'r yakunida shoirning istehzosi oydinlashadi:

“Ulug'layman seni deb nuqul,
Yerga urar sho'rlik shoirlar”.

She'rda sarkazmning soni turlicha bo'lishi mumkin. Yoki butun she'rning mohiyatida bitta sarkazm bo'lishi mumkin. Matnazar Abdulhakimning quyidagi she'rida faqat nafsini o'ylaydigan kimsalar ayovsiz sarkazm qilinadi:

“Uzr... senga gap qotib qo'ydim,
Yod-xayoling oxurda payting.
Qorning meshdek qappayib to'ygan
Qutlug' bo'lsin katta hayiting!”

N.Shukurov “Uslublar va janrlar” kitobida G‘.G‘ulom ijodida milliylikning aks etishi haqida fikr yuritar ekan, «quyoshga tig‘ urib uchgan kurkunak, dosh qozonda qaynab pishayotgan shinnilar, qirq besh xil uzumlar osilgan atan, janaqi, qandil olmalar, qo‘g‘a poyasiga bog‘lab shipga osilgan qovunlar, nimtatir shabada, shabnam, bedana, chaylaga o‘rmalab chiqqan suvqovoq, zumrad butoqda, oltin chanoqda ochilib yotgan paxtalar haqida

gapirib, O‘zbekiston kuzining o‘ziga xos ko‘rinishlarini milliy psixika bilan idrok etadi va tasvirlaydi»²⁵, - deb yozadi.

Matnazar Abdulhakim she‘rlaridagi metaforalar, she‘riy san‘atlarning asosida ham milliylik yotadi, shoir qo‘llagan metaforalar, she‘riy san‘atlarni kuzatish chog‘ida shunday xulosaga kelindi.

3.2. Matnazar Abdulhakimning o‘g‘uz lahjasidagi she‘rlarida metafora.

Adabiyot ahli tilning imkoniyatlaridan imkon darajasida to‘la foydalanishi kerak. Zero tilning boyliklari ijodkorning asarini bezab turadi. Matnazar Abdulhakim o‘g‘uz lahzasining imkoniyatlarini o‘zining “Bir qujoq gul” to‘plamida namoyon etgan. Ushbu turkum Matnazar Abdulhakimning “Tanlangan asarlar” 2-jildidan ham o‘rin olgan. Turkumdagi she‘rlar to‘laligicha o‘g‘uz lahjasida yozilgan bo‘lib, har bir she‘rda go‘zal tashbehlar qo‘llanilgan. Ushbu turkumning yaratilishiga izoh berar ekan shoirning o‘zi shunday deydi: “Jahonda bir qancha o‘lik tillar bor. Ba‘zida o‘ylab qolaman – xo‘sh, ularning o‘limi nimadan boshlangan?! Tovushlar, ohanglar poyonsiz, tillarning imkoni sarhad bilmaydi. Biroq, shunisi ham bor-ki, dunyodan nafaqat bitta so‘z, balki u yoki bu tilga ziynat bo‘lib turgan biron-bir tovush yo‘qolsa ham, ma‘naviyatimiz uchun bu og‘ir judolikdir. Daryolar borib quyilmasa, dengizlar qurib qoladi. Xuddi shunday, shevalarimizdan, lahjalarimizdan jonbaxsh jaranglar, so‘zlar, yangi-yangi ifoda imkoniyatlari nasib bo‘lib turmasa, har qanday “adabiy til”, jumladan o‘zbek adabiy tili ham inqirozga yuz tutish xavfidan emin bo‘la olmaydi” deydi. Tilda unulib borayotgan so‘zlarni yana muloqotga ko‘chirish uchun o‘z she‘rlarida so‘zni ommaga eslatish shoirning ijtimoiy vazifasidir. Matnazar Abdulhakim ushbu vazifani astoydil ado etdi.

Turkumni kuzatar ekanmiz, she‘rlarda qo‘llanilgan metaforalarni, she‘riy san‘atlarni ilg‘ash uchun o‘g‘uz lahjasidan boxabar bo‘lish talab etiladi. Quyidagi she‘riy parchada shoir “ayriliq”ni “bo‘g‘ma ilon”ga mengzaydi:

²⁵ Ш у к у р о в Н. Услублар ва жанрлар.- Тошкент, 1973, 30-бет.

“Yodimnon chiqmiysiz, og'o” – dadingmi,
Sog'inib oqordi sochi og'oning.
Bo'g'mo ilon bo'lib bo'g'or oyroliq,
Na garak yodingnon chiqormog'oning.

Shevada yozilgan she'rda tasvirlar toza bo'lishi, hatto poetik tasvirlar ham xalqqa yaqin bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan mukammal bo'lishini Matnazar Abdulhakim isbotlab berdi.

Qizil guldiyn olmo yonoqi yondi,
Galyanda o'xshoplo do'lishg'on oyo.
Jannatni hovosi galyotirg'ondi
Men yorni qujoqlop o'tirg'on joyo.

Ushbu she'riy parchada yorning yonog'i ikkita metaforaga asos bo'lgan. Shoir ham “qizil gul”, ham “olma”ga o'xshatib o'xshatishlarni qavatma-qavat joylashtiradi. Keyingi misrada yorning kelishini “to'lishgan oy”ga o'xshatadi. Oshiq uchun bu holat shunchalik qiyosga boyki, hatto yorni quchib o'tirgan joyidan jannatning havosi kelayotgandan sarmast bo'ladi.

Xovor varar adi qomish qolliqing
Go loqqo, go sozon, godo so'vgannan.
O'ynoqlop chiqor adi har bir bolliqing
Qormoqingo ilib so'vinganinnan.

Shoirning o'g'uz lahjasidagi she'rlarida ko'plab she'riy san'atlar uchraydi. Shulardan biri jonlantirish san'atidir.

Izimnan topmasin begonolo dap,
Izingni siyirib galyotir soching.
Yo'ldo olomono qoshing qoching dap,
Yo'ldo olomono soching dar qoching.

Shoir yorning a'zolariga ham insonga xos harakatlarni taqadi, soch izni tozalasa, yo'lda uchragan odamga qoshlari “qoching” deydi. Jonlantirishdan shoir yorning “hayo”sini, odobini kuchaytirib tasvirlashda foydalanadi. She'riy parchani o'qir ekanmiz, tasavvurimizda “hayo”sini har nedan ustun qo'yadigan o'zbek qizi

ko'z oldimizga keladi. "Jonlantirish" o'quvchiga shoirning aytmoqchi bo'lgan fikrini yanada aniqroq anglatish uchun nihoyatda qo'l kelgan.

San vilan o'ylog'on o'ylorimiz bir,
Chakkan ozopimiz ana-bolodir.
Na uchun bo'lmosin to'ylorimiz bir,
Ikki yurakimiz bir diyv lolodir.

Shoir ushbu she'rida "o'ylari bir" bo'lgan mahbubasi bilan chekkan azoblarini "ona-bola"ga o'xshatib metafora hosil qilgan. O'xshatishlarni davom ettirib "yuraklar"ni "bir tup lola"ga o'xshatadi. Yuqorida tahlil etganlarimiz she'rlardagi singari Matnazar Abdulhakim o'g'uz lahjasidagi she'rlarida ham favqulodda metaforalar topadi. Qo'llagan o'xshatishlari hayotiy va bir qadar totimli. Ushbu she'rning yakuni ham go'zal yakunga ega:

Uchakinga qo'nor kaptarlarim, yor,
Qo'yloring qo'romni yoxshi go'radi.
Oding bilan do'lg'on daptarlarim, yor,
Chiqoning jo'romni yoxshi go'radi.

Yorning "od"i bilan daftarlari to'lgan oshiqning "kaptar"lari yorning tomiga qo'nishini aytar ekan, oshiq yana ikki sirni oshkor qiladi, bularning birinchisi qo'ylari yorning qo'ylarini yaxshi ko'rsa, ikkinchisi, yorning dugonasi oshiqning jo'rasini yaxshi ko'rishi haqidagi sir.

Qorni ochlo do'yor o'tib gun, oylo,
Yomon bo'lor akan ko'ngilni ochi.
Otizdo to'vlonib durg'on bug'doylo
O'ris yurtda yuryan yorimni sochi.

Shoir nigohi har qanday ijtimoiylikni ham she'rga aylantirib, badiiyat bilan bezay oladi. Ushbu she'riy parchada musofirlikda yurgan qizning sochi "otizda tovlanib turgan bug'doy"ga o'xshatilmoqda.

Novotdonom suji gappingni dinglop,
Bilmiyn qoldim daryo vo'lib doshg'onim.
"Bolmonmi yo saryog'?" – dap so'ravadim,

Dading, - “ikkisini oroloshg'oni...”

Bu she'riy parchada endi Matnazar Abdulhakim metaforani “yor”ning o'z tilidan aytiradi. Oshiq yorning “novvotdan ham suji gapini tinglab” daryo bo'lib toshganini sezmay qoladi va undan bolsanmi yo sariyog'deb so'raydi. “Yor” esa o'zini “bol bilan sariyog'ning arlashgani”ga o'xshatadi.

Yuraklarim zada sani sog'inib,
Qo'lim sango xotlo yozib horiydi.
Do'rt-besh go'zzi qaro yeg'nolg'on yerda
Go'zzim olmo terib sani qoriydi.
Qoni bir go'rinsang... chidob bo'lmiydi
Hijron, oyroliqning nomus-orino...
Yuz yil yotib yesa do'yor Xorazm
Go'zlarini tergan olmolorino.

Ushbu she'rda esa metaforik birikma yasalgan: oshiqning to'rt-besh hurliqo yig'ilgan joyda ko'zlari tergan olmaga Xorazm yuz yil yotib yesa to'yadi. Bu mubolag'a san'atiga ham misol bo'la oladi.

Adabiyotshunos Tal'at Solihov lirik qahramon haqida shunday degan: “Lirik qahramon va shoir degan gap bor. Bu – g'irt bema'nilik. Faqat shoir bor. Lirik qahramon ham shoir, shoir ham shoir”.²⁶ Lirik qahramon mohiyatida, albatta, shoir turadi. Shoir o'z ruhiyatini turli obrazlar vositasida she'rga ko'chirar ekan o'zini ham lirik qahramon qilib she'rga olib kiradi. Matnazar Abdulhakim she'rlarida “lirik qahramon” turli kayfiyatdagi shoirdir. Deylik, ishq-muhabbat vasf qilingan she'rlarda biz “oshiq shoir”ning “lirik men”iga duch kelamiz, ijtimoiy ruhdagi she'rlarda “donishmand shoir”, “millatparvar shoir”ni kuzatamiz.

Matnazar Abdulhakimning o'g'uz lahjasidagi she'rlarida “chapani shoir”ni, “do'lvor oshiq shoir”ning “men”ini kuzatamiz. Shoir xalq tilidan shu darajada unumli foydalanganki, “Bir qujoq gul” turkumidagi har bir she'rni huzurlanib o'qiymiz.

²⁶ Tal'at Солихов. Адабиёт – инсонни кашф қилиш. Янги аср авлоди нашриёти. Т.: 2016

Adabiyotda mavzular unchalik ko'p emas. Har bir mavzuda ijodkor o'zining yangi g'oyasini ilgari surib, yangi metaforalar bilan yangi asarni dunyoga keltiradi. Ba'zan syujetli she'rlarda diniy, tarixiy motivlardan foydalaniladi. Modern she'riyat mavzular xilma-xilligi bo'yicha an'anaviy she'riyatdan farq qiladi. Matnazar Abdulhakimning o'g'uz lahjasidagi she'rlarining aksar mavzusi sevgi-muhabbat mavzusi, lekin asosiy urg'u xalqning donishmandligi, xalqning hayotini aks ettirishga beriladi. Turkumda qo'llanilgan metaforalar ham, boshqa she'riy san'atlar ham xalq og'zaki ijodining ta'sirida yasalgan.

Xulosa

Matnazar Abdulhakim she'rlarining lisoniy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Bugungi kunda o'zbek adabiyotshunosligida badiiy asar tahliliga bag'ishlangan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilayotganligi bu sohaning jadal suratda rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi.

2. Alohida olingan ijodkorlar asarlarining o'ziga xos xususiyatlarini qo'llagan metaforalari tadqiq qilish orqali ochib beruvchi tahlil adabiyotshunoslikning barcha yo'nalishlari bilan aloqadordir. Badiiy asarlarda metaforalarning tutgan o'rni, qo'llanish imkoniyatlari muallif mahoratiga, individual uslubiga bog'liq bo'lib, poetik matnlarda ularning badiiy-estetik xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

3. She'rlarda muallif tomonidan to'g'ri tanlangan vositalar o'ziga xos ma'no nozikliklariga ega bo'ladi. Tilimizdagi bir qator so'z va iboralarning emotsional-ekspressiv xususiyatiga ega bo'lishi ularning she'riyatda metaforik vosita sifatida ishtirok etishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun Matnazar Abdulhakim tomonidan ma'lum bir uslubiy maqsadda tanlangan xalqchil birikmalar, metaforik tasvirlar, fikrlarning o'quvchi tomonidan tez va to'g'ri tushunilishini ta'minlashdan tashqari obrazlilikni ham vujudga keltiradi. Matnazar Abdulhakim she'riyatida asar mazmunini ochishga, qahramonlar xarakter-xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalashda ko'chma ma'no asosida yuzaga keluvchi vositalar muhim ahamiyatga ega. Matnazar Abdulhakim ma'no ko'chimlaridan foydalanishda so'zlarning jozibadorligini hisobga olishni o'ziga xos uslubiy vazifa etib belgilaydi. Shuning uchun uning she'rlarida qo'llanilgan metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi tasviriy vositalar, she'riy san'atlar muallifning individual uslubi bilan bog'liq holda namoyon bo'lgan.

Har bir ijodkor tildagi mavjud vositalardan o'rinli foydalana olishi bilan o'z ijodi mahsuli bo'lgan she'rlari tilining aniq va tushunarli, ifodali va ta'sirchanligini

ta'minlashga erishadi. Matnazar Abdulhakim she'rlarida qo'llanilgan metaforalar fikr ifodalashda qulaylik tug'dirishdan tashqari tasvirlangan jarayonni, voqelikning poetik manzarasini o'quvchi ko'z o'ngida aniq gavdalantiradi, unda zavq uyg'otadi, kitobxonda ularga nisbatan subyektiv munosabatning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

4. Matnazar Abdulhakim she'riy san'atlardan foydalanishda o'zbek she'riyatining davrlar osha shakllangan va takomillashgan an'ana va mezonlariga amal qiladi. Matnazar Abdulhakim favqulodda kashf qilgan badiiy topilmalar, kutilmagan obrazli ifodalar kitobxonni hayratga soladi, ulardagi shoirning hayotni teran ko'z bilan kuzatishi asosida yuzaga kelgan o'ziga xos badiiy tafakkur, bir-birini to'ldiruvchi mantiqiy xulosalar matnga poetik bo'yoq, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Shuning uchun u tomonidan qo'llanilgan va matnga bog'liq holda badiiy obrazga aylangan tushunchalar she'rdan she'rga ko'char ekan, har gal o'zlarining yangi-yangi nozik qirralarini kitobxonga oshkor etadi va poetik ta'sirchanlik xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

5. Matnazar Abdulhakim she'riyatida o'xshatish, jonlantirish, antiteza, sifatlash, takror kabi she'riy san'atlar faol qo'llanilgan bo'lib, ular kitobxonni shoir ruhiyatiga oshno qiladi, betakror poetik manzaralar hosil qiladi, muhim vosita sifatida she'rlarda badiiy-estetik ta'sirchanlikni oshirishga, turli ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat qilgan. She'riyatda bu vositalarni qo'llash bilan shoir kitobxonni tasvirlanayotgan kishining ichki olamiga olib kiradi, uning kechinmalari, his-tuyg'ulari bilan tanishtiradi. Bundan tashqari kitobxonga ruhiy lazzat, orom bag'ishlashni ham nazarda tutadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar Matnazar Abdulhakimning metafora va badiiy san'atlardan foydalanishda mohir so'z san'atkori ekanligidan dalolat beradi.

Ishda erishilgan natijalardan o'zbek adabiyotshunosligida alohida olingan ijodkorlar asarlarining metaforik xususiyatlari, xususan, she'riy asarlarning metaforik imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish

bo'yicha kelgusida magistrlik dissertatsiyalari, malakaviy bitiruv ishlari yozishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Matnazar Abdulhakim ijodi keng qamrovli ummon. Uning har bir she'ri shu ummon tubidagi qimmatbaho dur. Bu esa Matnazar Abdulhakim she'riyati bo'yicha kengroq tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Mazkur mavzuni yanada tadrijiy davom ettirish, olib borilgan kuzatishlarni bir umumiy maxrajga keltirib, ilmiy-nazariy asosga qo'yish adabiyotshunoslik sohasi oldidagi navbatdagi vazifalardan biridir.

Zero, Matnazar Abdulhakim zamonaviy o'zbek she'riyatidagi eng samimiy va toza liriklardan biridir, aynan LIRIKdir. Bunga ushbu kichik tadqiqotimiz ham guvohlik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент: Фан, 1981.
3. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991.
4. Воҳидов Р., Неъматов Х., Махмудов М. Сўз бағридаги маърифат.- Тошкент: Ёзувчи, 2001.
5. Матназар Абдулҳаким. Танланган асарлар. 1 жилд, Т.: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017.
6. Матназар Абдулҳаким. Танланган асарлар. 2 жилд, Т.: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017.
7. Матназар Абдулҳаким. Мангулик жамоли. Хоразм Маъмун академияси нашриёти, Хива, 2009.
8. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. –Т.: Fan, 1978-1979.
9. Карим Б. “Руҳият алифбоси” –Т.: Т.: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2016.
10. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –Т.: O‘zbekiston, 2002.
11. Hamdamov U. Ijodkor va davr. //O‘zbek tili va adabiyoti, 2002. №6.
12. Hamdamov U. Yangi o‘zbek she’riyati. –Toshkent: Adib, 2012.
13. Mustaqillik davri adabiyoti. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2006.
14. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. –Т.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
15. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. –Т.: Fan, 2007.
16. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Т.: Akademnashr, 2010.
17. Solijonov Y. Hozirgi o‘zbek lirikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. FDU, 2009.
18. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. Darslik. –Т.: Yangi asr avlodi, 2004.
19. Umurov S. Detal va tafsilot. //Sovet maktabi, 1966. №1.

20. Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Darslik. –Т.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
21. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. –Т.: “O‘AJBNT” markazi, 2003.
22. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
23. O‘zbek adabiy tanqidi. Adabiy-tanqidiy maqolalar. –Т.: Turon-Iqbol, 2011.
24. G‘aniyev I., Afoqova N., G‘aniyeva A. Shavkat Rahmon olami. –Toshkent: Akademnashr, 2013.
25. G‘ofurov I. She‘riyat – izlanish demak. –Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1984.
26. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (махорат ва тил ҳақида мулоҳазалар). – Тошкент: 1962.
27. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002.
28. Йўлдошев М. Чўлпоннинг халқ ибораларидан фойдаланишдаги маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999, 6-сон.
29. Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994.
30. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. -Самарқанд: Зарафшон, 1992.
31. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
32. Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993.
33. Талъат Солиҳов. Адабиёт – инсонни кашф қилиш. Янги аср авлоди нашриёти. Т.: 2016
34. Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадийлигини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фанлари номз...дисс. автореф. Тошкент, 2010.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.ziyouz.com
3. www.kh-davron.uz